



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!


# Postda Ha nocty

2024-yil  
13-iyun  
payshanba

№ 24 (4666)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

Navoiy viloyati Karmana tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, kapitan Shohrux Martonov o'ziga biriktirilgan «Paxtaobod» mahallasida joylashgan «Ishonch» nomli yozgi oromgohda bolalarning xavfsiz dam olishini ta'minlashga, jinoyat va huquqbazarliklarning oldini olishga o'z hissasini qo'shamoqda. Viloyat IIB JXX HPB inspektorlari, kapitan Sexrob Ravshanov hamda leytenant Oydinoy Erkinova esa mazkur oromgohda profilaktik targ'ibot tadbirlarini tashkil etishyapti.



USHBU SONDA

## IASORAT VA MARDLIK TIMSOLI



3

## XODIMLAR SOGLOM BO'LSA



14

## KELAJAKKA RAG'BAT



20

Туман ИИБда

# ТАХИАТОШ ТУМАНИ



**Тахиатош тумани Туркменистан билан чегара ҳудудда жойлашган.**

Туман ИИБ биноси 2022 йилнинг февралидаги қайта таъмирдан чиқарилиб, фойдаланишига топширилди. Айни пайтда туманда 10 та макон, 4 та овул фуқаролар йиғини мавжуд бўлиб, унда 76 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қиласди. Албатта, мазкур ҳудудларда осоишталикини таъминлаш, хукуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишда профилактика инспекторларининг ўрни бекёйёсdir. Хозирда мазкур ҳудудларга 15 нафар профилактика инспектори бириктирилиб, уларнинг хизмат олиб боришилари учун зарур шароитлар яратилган.

Ҳар бир ҳудуднинг кириб-чиқиш жойлари, катта кўчалар, аҳоли гавжум жойларда видеокузатув камералари ўрнатилиб, туман ИИБ пультига интеграция қилинган.

Хотин-қизларнинг муаммоларини ўз вақтида аниқлаш, ёрдамга муҳтоҷ ва оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларга ижтимоий-хукуқий, психологияк ёрдам бериш, зўравонлик ва тазийка учраган аёлларни ҳар томонлама ҳимоя қилишда туман ИИБ ЖХХ ҲПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектор лавозимига тайинланган **лейтенант Шахсанем Жарилкаганова** томонидан жорий йилнинг ўтган даври мобайнинда ҳудуддаги 43 та хонадон ўрганиб чиқилган. Бунинг

натижасида жами 18 та муаммо аниқланиб, ҳозирга қадар 11 таси ижобий ҳал этилган. Шунингдек, тазийқ ва зўравонлиқдан ҳимоя қилиш мақсадида 42 нафар хотин-қизларга ҳимоя ордери берилган.

Тахиатош тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов гурухи катта терговчиси **майор Нодирбек Давлатов** ички ишлар органларидаги илк хизмат фаолиятини 2015 йилда бошлаган. 2016 йилда Амударё туман ИИБ ҲЛБ профилактика инспектори лавозимига ўтказилиб, кейинчалик, Нукус шаҳар ИИБ



профилактика инспектори, шаҳар 1-сонли ИИБда тергов гурухи суроштирувчisi, ҚР ИИБ Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси тергов гурухи суроштируvchisi лавозимларида хизмат олиб



борган. Н.Давлетов жорий йилнинг ўтган 5 ойи давомида 4 та жиноят ишини очишга муваффақ бўлган. Бўш вақтларида спорт билан шуғулланади.

Мазкур ҳудудда хавфсизликни таъминлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш ва унга қарши курашишда туман ИИБ



Жиноят қидирув гурухи ходимлари томонидан ҳам қатор ишлар олиб борилмоқда.

– Жорий йилнинг ўтган даври мобайнida ходимларимиз томонидан жами 20 дан зиёд жиноят фош этилди. Улардан 8 таси ўғрилик, 2 таси гиёхвандлик жиноятлари билан боғлиқ. Бундан ташқари 2 нафар бедарак ўйқолган шахслар топилди, 5 нафар қидирувдаги шахс қўлга олинди. Ўз навбатida, ходимларимиз томонидан келгусида бу каби жиноятларнинг олдини олиш мақсадида жойларда жиноятлар муҳокамаси ташкил этилиб, аҳоли орасида тушунтириш ишлари олиб бориляпти, – дейди туман ИИБ

Жиноят қидирув гурухи катта тезкор вакили, **майор Руслан Узакбергенов.**

**Азamat  
Пирниязов,  
ўз мухбиримиз.**

Корақалпоғистон Республикаси



## МАЪЛУМОТ ЎРНИДА

Тарихчиларнинг ёзишича, Тахиатошнинг пайдо бўлишини Хўжайли шаҳри тарихидан айро тутиб бўлмайди. Сабаби, илк бор бу жойлар Хўжайли шаҳри ҳудудидаги қалъа шаклидаги макон бўлган.

Ҳудуд номининг пайдо бўлиши юзасидан ҳалқ орасида бу ерда тақияга (ўзбекча-дўппи) ўхшаш катта тош бўлгани ҳақида гап бор. Лекин буни ҳалқ этимологияси деб ҳисоблаш мумкин. Сабаби, Тахиатош топонимининг пайдо бўлиши узоқ ўтмишга бориб тақалар экан. Чунки араб тилида бу сўзнинг бир нечта маъноси мавжуд. У биринчидан «сүянч», «таянч» деган маънони билдиради. Шу билан бир қаторда кишилар йигилиб ўтирадиган жой «тақия» ёки «тақияхона» деб ҳам номланган. Масалан, «Бобурнома» китобида «тақия» дарвеш ва қаландарлар йигиладиган жой маъносини билдириши қайд этилган. Шу боисдан «Тақия тош» дарвеш ва қаландарлар йигиладиган тош жой, меҳмон уйи деган маънодан келиб чиқсан бўлиши мумкинлиги айтилади.

Умумийлаштириб айтганда, Тахиатош сўзининг маъноси тўлиқ тадқиқ этилмаган. Аммо унинг ҳозирги ҳудудини XVII–XVIII асрлар охирида қорақалпоғларнинг кенегес уруғи макон тутган. Кейинчалик кенегесларнинг доимий яшайдиган овулига айланган. Овлулардан ҳозирги «Кенегес ёп» оқиб ўтган. Дастрлаб бу сув йўлини «Аман-кули» канали деб атаганлиги айтилади. Сабаби, Муҳаммад Амин иноқ Хива хони бўлган пайтлари кенегесларга Аманқул бий раҳбарлик қилган. Унинг бошчилигига ҳозирги Тахиатош тумани жойлашган жойда Амударёдан канал қазилган ва уларнинг асосий суфориш тизимига айланган.

Ушбу маълумотларга таянилса, туманинг пайдо бўлиши 300 йиллик тарихни ўз ичига олади, деган хulosага келинади. Амударёнинг қирғонида жойлашган ҳудуднинг маъмурий шаклланиш тарихига келадиган бўлсак, у илк маротаба 1954 йил 19 октябрда Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси қарорига асосан Хўжайли туманинаги шаҳар типидаги қўрғондан Тахиатош шаҳри бўлиб ташкил этилади. Мустақиллик йилларига келиб мақбуллаштириш жараёнлари туғайли шаҳар Хўжайли тумани таркибига киритилганди. Президентимиз Ш.Мирзиёев 2017 йил январь ойидаги Қорақалпоғистон Республикаси ташрифи чоғида Тахиатош туманини ташкил этиш тўғрисида таклиф бердилар. Шу асосда туман қайта ташкил этилди.

 XALQARO HAMKORLIK

## QIRG'IZ DELEGATSIYASI TOSHKENTDA

Joriy yilning 2–6-iyun kunlari Qirg'iz Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish xizmati raisi, ichki xizmat general-mayori Askat Egemberdiyev boshchiligidagi delegatsiya IIV huzuridagi jazoni ijro etish departamentiga tashrif buyurdi. Delegatsiya a'zolari departamentning yangi binosida yaratilgan shart-sharoitlar, jumladan navbatchilik qismi, sport zallari, kutubxona, oshxona, jismoniy va jangovar tayyorgarlik xonasi bilan tanishishdi.

IIV huzuridagi JIED boshlig'i, polkovnik Rustam Tursunov mehmonlarga yurtimizda inson huquqlarini ta'minlash, xususan, jazoni ijro etish muassasalaridagi shaxslarga foydali hunarlar o'rgatish, ularni ozodlikka tayyorlash borasida ko'rileyotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, ishlab chiqarish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar xususida ham to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng mehmonlar Birinchi mintaqaviy hudud 24-sون Tarbiya koloniyasida bo'lib, bu yerda yaratilgan sharoitlarni, muassasa qoshi-dagi maktab filiali, kasb-hunarga o'qitish markazini ko'zdan kechirishdi. Muassasada amalga oshirilgan ishlar, o'tkazilgan ma'naviyima'rifiy tadbirlarni e'tirof etdilar.



Shuningdek, delegatsiya a'zolari Birinchi mintaqaviy hudud 42-sон Manzil koloniyasida ham bo'lib, ishlab chiqarish faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Ular muassasada yo'Iga

qo'yilgan ustoz-shogird an'analari, tikuvchilik sexi faoliyati, boq'dorchilik yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori baholashdi. Ayniqsa, chorvachilik ferma-si zamonaviy texnologiya-

viy hududdagi 13-sон JIEK, Uchinchı mintaqaviy hudud-dagi 38-sон Manzil koloniyası faoliyati bilan ham tanishdilar. Xodimlarning xizmat samaradorligi, kasbiy tajribasi, mahkumlarni tarbiyalash borasi-dagi ijobji ishlar e'tirof etildi.

Shuningdek, delegatsiya a'zolari poytaxtimizdagи «G'alaba bog'i»da bo'lib, O'zbekistonning Ikkinci ja-hon urushida qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi ni aks ettiruvchi suratlar va boshqa ko'rgazmalarni ko'zdan kechirishdi. Samar-qanddagi tarixiy obidalar ham ularda katta taassurot qoldirdi.

Tadbir so'ngida mahkumlarni tarbiyalash, xodimlar malaka va tajribasini oshi-riish kabi xizmat samaradorligi uchun muhim bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha o'zarо hamkorlikni yanada mustah-kamlashga kelishib olindi. Ayni masalalar yuzasidan memorandum imzolandi.

**Shahrizod SHOKIROV,**  
**kapitan.**

## OTALIQQA OLINGAN YOSHLAR BILAN

Kelajagimiz egalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ona yurtga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi tomonidan otaliqqa olingan yuz nafar yoshlар bilan poytaxtimizda joylashgan «Shahidlar xotirasи» yodgorlik majmuasi va «Qatag'on qurbanlari xotirasи» davlat muzeysiaga sayohat uyushtirildi.



Bu yerda ular atrofdagi go'zal manzaralarni tomosha qilish bilan birga, qatag'on qilingan fan, maorif, madaniyat, adabiyot, san'at va ijtimoiy hayotning boshqa jahbalarida faoliyat yuritgan 6920 nafar hamyurtimiz xotirasini yod etishdi.

Yoshlar uchta zaldan iborat muzeyni tomosha qilarkan, chor Rossiyaning O'rta Osiyon bosib olishi va aholiga o'tkazilgan zulm natijasida ko'tarilgan xalq qo'zg'onolari, jadidlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va XX asrning 30, 40 va 50 hamda 80-yillardagi qatag'onlar, shu bilan birga, mustaqillik davrida tarixiy adolatning tiklanishi va Uchinchı renessans haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Shuningdek, ma'naviyat maskani ilmiy xodimlarining muzeuning barpo etilishi va uning tarixiy ahamiyati to'g'risidagi ma'ruzasi ham yoshlarda unutilmas taassurot qoldirdi.

– Ertamiz egalari bo'lgan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida tashkil etilayotgan bu kabi tadbirlar o'z samarasini berishi shak-shubhasiz, – deydi bosh boshqarma Axborot-tahlil bo'limi boshlig'i, polkovnik Faxriddin Tursunov. – Shu bois kelgusida ham bu kabi tadbirlarni muntazam o'tkazib borishga qaror qildik.

**Bahromjon QUVONOV,**  
**kapitan.**



## JASORAT VA MARDLIK TIMSOLI

IIV Xorazm akademik litseyida «To'maris davriga bir nazar» mavzusida o'tkazilgan uchrashuvda viloyat «To'maris» jamoat fondi raisi, «To'maris avlodи» jurnali bosh muharriri Sharqiya Eshjonova, ona yurtini bosqinchilardan mardlarcha himoya qilgan massagetlar malikasi To'marisning hayoti va jasoratiga to'xtalib o'tib, uning sarkardalik mahorati, davlat boshqaruvidagi odilona siyosati, betakror qahramonligini hikoya qilib berdi. Shuningdek, sevimli san'atkor O'zbekis-ton xalq artisti Gulora Rahimova tomonidan ijro etilgan «To'maris» monologi kechaga ko'tarinkи kayfiyat baxsh etdi.

– Bu kabi tadbirlar yoshlari-mizni buyuk ajodolarimizga munosib voris etib tarbiyalashda muhum ahamiyat kasb etadi, – deydi viloyat IIB MMI va KBTX boshlig'ining o'rinnbosari, «To'maris» ko'krak nishoni sohibasi, podpolkovnik Dilnoza Bog'ibekova.

**O'z muxbirimiz.**  
**Xorazm viloyati.**



## ■ Навоийская область

# БЕЗОПАСНОСТЬ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ

**Железнодорожное сообщение играет важную роль в развитии любого государства.**

Через Навоийскую область проходит 524 километра путей сообщения. Здесь имеются 2 вокзала, 20 станций, 40 железнодорожных переездов, действует 21 предприятие системы акционерно-

го общества «Ўзбекистон темир йўллари».

Сотрудники ведут борьбу с преступностью в данной сфере, обеспечивают безопасность пассажирских и грузовых перевозок.



В 19 махаллях города Зарафшана, Карманинского, Кызылтепинского, Навбахорского, Канимехского, Учкудукского районов, соседствующих с железнодорожными ветками, налажена профилактическая работа с населением. Проверяются вокзалы и станции на наличие подозрительных предметов, осуществляются рейды по предупреждению преступлений и правонарушений на транспорте. По установленным фактам принимаются законные меры.

За минувший период года по горячим следам раскрыт ряд преступлений. Так, недавно был задержан с поличным Сардор Олимов (имя и фамилия изменины). Воспользовавшись темнотой и тем, что железнодорожный переезд был не охраняемый, он украл и вывез 8 защитных столбов марки Р-65. Благодаря действиям сотрудников управления злоумышленник задержан.

**Махлиё ХОЛОВА,  
соб. корр.**



## ■ Самаркандская область

# СЛЕДОВАТЕЛЬ – ЭТО ПРИЗВАНИЕ

**Для капитана Шахзода Шодмонова профессия следователя стала призванием. К ней он шел целенаправленно. После окончания школы продолжил учебу в Академии МВД Республики Узбекистан.**



Службу в органах внутренних дел Ш. Шодмонов начал в 2017 году. Молодого выпускника вуза направили в родной Нурабадский район.

Его отец, Шодиёр ака, работает юристом, а младший брат, Темур, – помощник судьи.

– Многие думают, что работа следователя – это распутывание загадочных преступлений, погони, слежка, задержание опасных преступников. В действительности, следователь занимается «распутыванием преступлений», но никак не «погонями и слежкой», говорит наш герой. – Следователь направляет ход расследования и принимает решения о производстве следственных и иных процессуальных действий.

С 2021 года Ш. Шодмонов старший следователь Следственного управления УВД области, занимается расследованием тяжких и

особо тяжких преступлений.

– Каждое уголовное дело, которое когда-то находилось в моем производстве, по-своему уникально, поскольку были разные ситуации, способы совершения деяния, – признается капитан. – Сейчас занимаюсь делом о мошенничестве, в котором задействовано более 40 человек. Это молодые люди, представлявшиеся предпринимателями. Они заключали договора на покупку товара на несколько миллионов, но после получения товара «исчезали». Следствие продолжается.

Ш. Шодмонов участвовал в республиканском конкурсе «Лучший следователь года». Не раз он удостаивался призовых мест. Коллеги, отзывающиеся о нем, говорят, что капитан на верном пути, его ждут новые достижения.

**Замира БАЛТАЕВА,  
соб. корр.**

 ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

# ҲАЁТИМДАГИ ЭНГ ОФИР КУН



Ўтган асрнинг саксонинчи йилларида марказдан юборилган «десантчилар» гурӯҳи ҳалқимиз бошига ўттизинчи йиллар қатоғонидан кам бўлмаган жабр-ситамлар келтирди. Жамоа хўжаликларининг оддий табелчисидан тортиб вилоят, республика раҳбарларигача бўлган минглаб инсонлар «ўзбек иши», «пахта иши» деган бўхтонлар ортидан қамалди. Янаям ачинарлиси, уларнинг орасида қишлоқ хўжалиги соҳасига умуман алоқаси бўлмаган юртдошларимиз ҳам бор эди...

1947 йил 19 ноябрда Қашқадарё вилоятининг Қамаши туманида туғилган Тўра Очилов 1967–1971 йилларда Тошкентда, олий ўқув юртида таҳсил олди. Илк хизмат фаолиятини Тошкент шаҳар ИИБ Алоҳида моторлаштирилган дивизиони милиционерлигидан бошлади. Орадан иккийил ўтиб, ИИВ ДАНБда ҳаракатланишини ташкил қилиш бўйича муҳандис, 1974–1979 йилларда Қашқадарё вилояти ИИБ ДАНБ бошлиғи ўринбосари лавозимларида самарали фаолият кўрсатди. Ўз касбини пухта билиши, зиммасига юклатилган вазифаларни бекам-кўст бажариши, янгиликларни соҳага жадал татбиқ этиши билан ҳамкаслари ва раҳбарият ишончни қозонади.

– Мен Тўра Очилов билан бирга кўп йиллар хизмат қилдим, – дейди истеъфодаги полковник Ниёзмурод Рўзимуродов.

– У ниҳоятда талабчан, ташаббускор раҳбар эди.

Хизматда қаттиқўл бўлса-да, кек сақламасди, билганинги ўргатишни канда қилмасди. Қўл остидаги ходимларга меҳрибонлик кўрсатарди. Кимнингдир муаммоси бўлса, дарҳол ҳал этиш чораларини кўрарди.

Майор Тўра Очилов 1979 йили Бухоро вило-

яти ИИБ ДАНБ бошлиғи лавозимига тайинланган. У кўплаб ибратли ишларни амалга ошириди. Айниқса, йўлларда хавфсиз ҳаракатланиш учун, йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш мақсадида йўл белгилари ва светофорлар ўрнатиш борасида жонбозлик кўрсатади.

– 1983 йил 8 декабрь куни мен 9 ёшга тўлгандим. Кечқурун отамни қамоқقا олиш учун уйга одамлар келишиди. «Ота, туғилган кунимда қаерга кетяпсиз, бирга ўтирамайсизми?» деганимда, «Мен, албатта, қайтиб келаман, ўғлим» деганча олти йилга кетди. Ўшанда бола ақлим билан нима бўлаётганини англаб-англомаганман. Лекин ўша кун ҳаётимдаги энг оғир кун сифатида хотиратмга муҳрлангани бор гап, – дейди ўғли, истеъфодаги майор Илҳом Очилов. – Тер-

бу ҳақда умуман гапир масди. Отам барча қийноқларга чидаган. Негаки, спортни канда қилмасди. Учрашувга борганимизда бизга ҳам ўқинг ва спорт билан шуғулланинг, дея қайта-қайта тайинларди.

Тўра Очилов Ўзбекистон ССР Олий судининг 1986 йил 13 майдаги ҳукми билан «майор» маҳсус увони ва III даражали «Бенуқсон

Т.Очилов ҳақиқат қарор топиши учун тинимсиз курашди. 1990 йил 14 деқабрь куни унга қўйилган айловлар бекор қилиниб, жиноят иши қўшимча тергов учун Бухоро вилояти прокуратурасига юбо-

логия бўлими Экология марказига айлантирилиб, автомобиллардан ҳавога чиқаётган газлар миқдорини мөъёрлаштириш борасида республикада салмоқли ишлар амалга оширилди.



хизматлари учун» кўкрак нишони бекор қилиниб, 12 йилга озодликдан маҳрум этилди.

Жазони Қозоғистон Республикасининг Капчигай шаҳридаги колонияда ўтаб, 1989 йилнинг 7 июль куни озодликка чиқди.

Озодликка чиқсан, ҳалқимиз мустақилликни қўлга киритган пайтда Тўра Очилов ИИВ ДАНБ катта инспектори лавозимида хизматни бошлади. Сўнгра вазирлик ДАНБ Техника назорати бўлими таркибида экология бўлинмасини ташкил этишга бош-қош бўлди. Шу бўлинма бошлиғи вазифасида хизмат қилиб, табиатни асрараш, экологик вазиятни барқарорлаштириш борасида фидойилик кўрсатди. Унинг ташаббуси билан орадан иккйил ўтиб, ИИВ ДАНБ Эко-

рилди. 1991 йилнинг 27 апрель куни эса жиноят аломатлари йўқлиги сабабли жиноят иши ҳаракатдан тўхтатилди. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 1991 йил 27 августдаги хуласига асосан, ички ишлар органларига тикланди.

Халқимиз мустақилликни қўлга киритган пайтда Тўра Очилов ИИВ ДАНБ катта инспектори лавозимида хизматни бошлади. Сўнгра вазирлик ДАНБ Техника назорати бўлими таркибида экология бўлинмасини ташкил этишга бош-қош бўлди. Шу бўлинма бошлиғи вазифасида хизмат қилиб, табиатни асрараш, экологик вазиятни барқарорлаштириш борасида фидойилик кўрсатди. Унинг ташаббуси билан орадан иккйил ўтиб, ИИВ ДАНБ Эко-

Ички ишлар органларидаги хизмат фаолиятини вазирлик Давлат автомобиль назорати бош бошқармаси навбатчилик қисми бошлиғи лавозимида якунлаган подполковник Тўра Очилов 2000 йилдан бошлаб Фавқулодда вазиятлар вазирлиги моддий-техник таъминоти соҳасида давом эттириб, тизимни ривожлантиришга муносиб ҳисса қўшди. 2008 йилда полковник увонида иззат-икром билан пенсияга кузатилди.

Турмуш ўртоғи Дилбар Очилова билан иккӣил, уч қизни олий маълумотли ҳуқуқшунослар қилиб тарбиялади. Ота касбини танлаган ўғли Илҳом Қашқадарё вилояти ИИВдан, қизи Шаҳноза Тошкент шаҳар ИИВдан пенсияга чиқишиди.

**Содик РАҲИМОВ,  
ўз мухбиримиз.**

## ■ Республика Каракалпакстан

# КАЧЕСТВО ПРОДУКЦИИ – ЗАЛОГ ЗДОРОВЬЯ

В стране предпринимаются последовательные меры по насыщению внутреннего рынка качественными товарами повседневного спроса по доступным ценам. С наступлением лета актуальным становится кондиционность реализуемой населению пищевой продукции.



Большое внимание уделяется обеспечению контроля, недопущению к реализации непригодной к употреблению продукции, соблюдению санитарных норм и правил.

Свою лепту в это дело вносит группа обеспечения карантинных мероприятий СОБ МВД Республики Каракалпакстан, действующая совместно с заинтересованными организациями в целях реализации мер санитарно-ветеринарной безопасности. С участием специалистов проведено 266 проверок на 18 дехканских и 17 скотных рынках, других объектах торговли.

В результае выявлены и изъяты из реализации непригодные к употреблению 711 килограммов мяса, 516 килограммов молочной продукции, 152 килограмма рыбы и иной продукции.

Например, в ходе проверки Нукусского дехканского рынка обнаружена 121 единица рыбных консервов в банках по 0,5 литра, изготовленных с нарушением санитарных требований. Их реализацией занимался житель Ташкентской области Н. Х. Владелец товара не смог предъявить соответствующие сертификаты качества.



М. К. вез на Нукусский рынок 80 килограммов мяса. Проверка качества продукции в лаборатории ветеринарно-санитарной экспертизы № 1 установила ее некондиционность. Изъятое в установленном порядке мясо уничтожено.

– В ходе мероприятий также разъясняются правила хранения продукции, санитарно-гигиенические требования, – говорит сотрудник группы обеспечения карантинных мероприятий рядовой Куат Мурзаханов.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**  
соб. корр.

## Кинологическая служба

# ПРИЗНАНИЕ ПРИХОДИТ К НАСТОЙЧИВЫМ

Богатый опыт подготовки служебных собак накоплен в отделении кинологии УООП СОБ УВД Кашкадарьинской области. Сотрудники занимаются со своими четвероногими подопечными, которые помогают в раскрытии преступлений.



**На снимке:** командир 3-й кинологической группы старший сержант Рустам Ёкубов (слева) и младший инспектор-кинолог 1-й кинологической группы рядовой Сохиб Хайитов со своими питомцами.

Младший инспектор-кинолог 1-й кинологической группы отделения кинологии УООП СОБ УВД Кашкадарьинской области рядовой Сохиб Хайитов родом из Касанского района. Окончив школу, в 2020 году поступил в Нукусский филиал Ташкентского государственного аграрного университета. Получив диплом, прошел срочную военную

службу. Затем подал документы в органы внутренних дел.

Тонкостям воспитания служебных собак учился у наставника – старшего специалиста-кинолога старшего сержанта Б. Маманазарова. Постоянно повышает свои знания и навыки.

– В последние годы в кинологической службе происходят существенные преобразования.

Налажена подготовка на договорной основе собак физических и юридических лиц, – говорит начальник отделения лейтенант Бердимурод Норбутаев. – Созданы условия для повышения профессионального мастерства сотрудников.

**Зокир НОРМУРОДОВ,**  
подполковник.  
Кашкадарьинская область.

 KONSEPSIYA – AMALDA

## SHAXSIY TARKIB – BIR OILA

– DEYDI QO'SHTEPA TUMANI IIB BOSHLIG'I O'RINBOSARI, MAYOR ELYORJON OXUNOV

Bugungi kunda ichki ishlar organlarida xizmat samaradorligini oshirish maqsadida xodimlar kundalik faoliyatini innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va ilm-fan yutuqlariga tayangan holda tashkil etmoqda. Soha xodimlarining jismoniy tayyorgarligi bilan uzviy ravishda ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirish, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish tizim rahbariyatining eng ustuvor maqsadiга aylangan. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiysi talablaridan kelib chiqib, «xodimbay» ishslash uslubi amaliyotga joriy etilgani xizmat samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi.



– Shaxsiy tarkib ham bir oila sanaladi, – deydi Qo'shstepta tumanı IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari, mayor Elyorjon Oxunov. – Shu bois ana shu katta oiladagi ijobjiy muhitni birdek ushlab turish, xodimlar o'rtasida sog'lom muhitni ta'minlash, ishchanlik kayfiyatini oshirishga ahamiyat qaratmoqdamiz. Konsepsiaga tayangan holda, kundalik yumushlarimizni aniq reja asosida, tizimli amalga



Mayor Ikromjon Salohiddinov xizmatda ham, oilada ham barchaga o'rnak.



Navbatchi, kapitan Sobirjon Madaminov hamda navbatchi yordamchisi, safdor Hamidullo Orifov xizmat jarayonida.



oshirmoqdamiz. Hozir vaqt ni to'g'ri taqsimlab, har bir

medali bilan taqdirlangan. Joriy yilning o'tgan davrida birorta jinoyat sodir etilgani yo'q, mahalla «yashil» toifaga kiritilgan. 2020-yilda «Loysen» mahallasiga ishga tayinlangach, mahalla markazida joylashgan xizmat uyiga oilasi bilan ko'chib keldi. Bugun uning xonadoni mahallaning eng fayzli maskani, desak, yanglishmaymiz. Darvozadan kirishingiz bilan barq urib ochilgan turfa gullar chiroyi sizni maftun etadi. 50 taga yaqin tovuq, to'tiqushlarning 40 dan ortiq turlari parvarish qilinadi. Mo'jazgina hovlining bir chetida gullar uchun biogomus ham tayyorlanadi.

Turmush o'rtog'i Zarnigor Salohiddinova esa qo'ligul chevar. Uyining bitta xonasi da chevarxona tashkil etib, mahalla ayollarining ko'yaklarini tikmoqda. Yaxshigina daromad topish bilan birga, 8 nafar qishloq qizlariga hunar ham o'rgatadi.

Yil boshidan buyon Qo'shstepta tumanidagi 51 ta mahalladan 44 tasida jinoyatchilik qayd etilmagani, umumiy jinoyatlar salmog'i esa 16,3 foizga kamaygani ham shaxsiy tarkib o'rtasida ahillik va hamjihatlik mustahkam ekanligidan, Konsepsiya amaliyotda o'z mevasini berayotganidan dalolat beradi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
«Postda» muxbir.  
Farg'onan viloyati.

### DONOLAR DEYDIKI...

Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir.

Abdulla AVLONIY.

# QO'SHSAHIFADA

## NAMANGAN TAJRIBASI AMALDA

8-9-aprel kunlari mamlakatimiz Prezidenti viloyatga tashrifi davomida aholining turmush farovonligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish, shuningdek, qonunbuzarliklarning barvaqt oldini olishga oid bir qator topshiriqlar bergandi. Shu ma'noda bir yarim oy muqaddam kriminogen vaziyatiga ko'ra Jizzax shahri hamda Sharof Rashidov tumanidagi 25 ta mahalla 8 ta mikrohududga ajratilib, profilaktik tadbirlar kuchaytirildi.

Chunonchi, ushu hududlarga viloyatdagi uch yil davomida «yashil» maqomini saqlab qolgan mahallalardan 25 nafar tajribali profilaktika inspektorlari hamda avto va piyoda patrullik

guruhlari olti oy muddatga jalb qilindi. Biriktirilgan xodimlar mazkur hududlardagi mahalla yettiliklari, xususan, profilaktika inspektorlari bilan faol hamkorlik qilishmoqda.



Natijada o'tgan davr mobaynida 1176 nafar fuqaroning murojaati ko'rib chiqilib, mavjud muammolarni hal qilish choralar belgilandi. Mahalla oltiligi va davlat tashkilotlari fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish bo'yicha 1510 ta xulosa rasmiylashtirildi. 85 kishi profilaktik hisobga olinib, ilgari sudlangan 117 nafar, profilaktik hisobda turgan 391 nafar, probatsiya xizmati nazoratidagi 308 nafar shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi.

Bu kabi sa'y-harakatlar natijasida mikrohududlar tarkibidagi mahallalarning 17 tasida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar sodir etilmadi. Umumiy jinoyatchilik sezilarli darajada qisqardi. Ma'lumot o'rnidida aytish kerak, kriminogen vaziyatiga ko'ra mahallalarni mikrohududlarga ajratish va ushu hududlarga qo'shimcha kuch va vositalarni hal qilish Namangan viloyati tajribasi hisoblanadi.

## CHEKKA QISHLOQLARDA

Bir oy davomida ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Mudofaa vazirligi hamda DXX tizimidagi harbiy qismlar, tuman favqulodda vaziyatlar, tibbiyat, o'rmon xo'jaligi, kommunal tizim vakillari hamda mahallalar yettiliklaridan iborat 5 ta guruh tomonidan Zomin tumanining Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarida qonunbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni fosh qilish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga yechim topish maqsadida tezkor profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Chunonchi, «Chilonzor», «Baxt», «Istiqlol», «Chorvador», «Turkman», «Duoba» aholi punktlaridagi 124 ta tashkilot, korxona, muassasa, 4 ming 211 ta turarjoy hamda 13 so'qmoq yo'l ko'zdan kechirildi.

Mazkur jarayonda yong'in, sel kabi ofatlar hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish yuzasidan tushuntirishlar berildi. Shuningdek, ov qurollariga ega 68 nafar shaxsning o'qotar qurollarni saqlash qoidalari-

ga amal qilishlari o'rganildi. Bu yo'nalishda qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan 14 kishiga nisbatan ma'muriy bayonnomma rasmiy lashtirildi.

Umuman olganda, guruhrular tomonidan bir nafar

qidiruvdagagi shaxs qo'liga olinib, 84 ta ma'muriy huquqbazarlik aniqlangan, 4 ta jinoyat fosh qilingan.

Tezkor profilaktik tadbirlar davomida ichki ishlar organlarida hisobda turadigan shaxslar, xususan, muqad-



dam sudlangan 38 nafar hamda probatsiya xizmati nazorati ostida bo'lgan 30 nafar shaxs bilan qayta jinoyatlar sodir etilishining oldini olish nuqtai nazari- dan suhbatlar o'tkazildi. Shu bilan birga aholi o'rtaida jinoyatchilikni jilovlash hamda sergaklikni oshirish maqsadida targ'ibot tadbirlari uyuشتirilgan.

# JIZZAX VILOYATI

## «YASHIL» MAQOMNI SAQLAB QOLAMIZ

G'allaorol tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektorlari tomonidan jinoyat sodir etishga moyil shaxslar, nizoli oilalar hamda kelishmovchiligi bo'lgan fuqarolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda 654 nafar shaxs profilaktik hisobga olindi. Ilgari sudlangan 40 nafar shaxs bilan suhbat o'tkazilib, ularning 32 nafariga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatildi.

Profilaktika inspektori, mayor Asqar Bo'riboyev «Qang'li» mahallasida yashovchi E.A.ning xonadonida bo'lganida, uning kechasi uyda emasligi ma'lum bo'ldi. Natijada holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Joriy yilning o'tgan davrida profilaktika inspektorlari tomonidan 2010 ta huquqbazarlik aniqlanib, ma'muriy bayonomalar rasmiylashtirildi.



Spirtli ichimlikka ruju qo'yan shaxslarning 82 nafari davolanish uchun shifoxonalarga joylashtirildi.

Bu kabi sa'y-harakatlar natijasida tumanimizdagi 35 ta mahallaning 29 tasida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yildi, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning 5,8 foizga kamayishiga erishildi. Maqsad – mahallalarimizning «yashil» maqomini saqlab qolish.

**Shahob TURSUNOV,**  
mayor.

## TABIAT HIMOYACHILARI SAFIDA

Viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimlari Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida taqiqlangan o'Ichamdag'i to'rlarda baliq ovlayotgan J.N.ning qonunga zid xatti-harakatlariga chek qo'yilar. Navoiy viloyati Nurota tumani Boymurot mahallasida yashovchi mazkur shaxsdan 89 kilogramm baliq hujjatlashtirib olingan.

Shuningdek, Mirzacho'l tumanining «Yangidala» mahalla fuqarolar yig'ini hududida harakatlanayotgan «UAZ» to'xtatib, tekshirilganida 197 kilogramm baliqlar noqonuniy ravishda olib ketilayotgani ayon bo'ldi. O'z navbatida Mirzacho'l tumanining «Do'stlik» mahallasida yashaydigan haydovchi O.I.ni



javobgarlikka tortish choralar belgilandi.

PPX xodimlari shu tarzda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hamda mazkur havzaga yondosh Forish, Arnasoy, Zafarobod va Mirzacho'l tumanlarida tabiat muhofazasiga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirmoqdalar. Chunonchi, ular tomonidan 26 ta reyd o'tkazilib, 6 holatda noqo-

nuniy baliq va boshqa jonivorlarini ov qilish holatlari aniqlandi.

Gumon qilinuvchilardan 2 ta avtotransport, 2 ta qayiq, bir dona ov quroli, 11 ta turli hajmdagi to'rlar hamda 474 kilogramm baliq hujjatlashtirib olingan. Qonunbuzarlar 23 million 800 ming so'm miqdorida jarima to'lashlariga to'g'ri keldi.

## QISQA SATRLARDA

### AYNI SHU YO'L BILAN...

Sharof Rashidov tumanining «Yakkaqayrag'och» mahallasida yashovchi O.Sh. ichki ishlar organlariga murojaat qilib, Jizzax shahrining «Zargarlik» mahallasida yashovchi N.Z. firib berganligini bildirgan. Ma'lum bo'lishicha, Umra safariga yuborish to'g'risida ijtimoiy tarmoqda e'lon tarqatgan N.Z.ning so'zlariga ishongan O.Sh. unga 1 300 AQSH dollarini miqdorida pul bergen. Biroq ko'p o'tmay N.Z.ning yolg'on va'da bergani oshkor bo'ldi. Surishtiruv davomida ayblanuvchining yana to'rt nafar shaxsni ayni shu yo'l bilan laqillatgani aniqlandi.

### TALONCHINING JOVI QAMOQDA

Jizzax shahrining «Ittifoq» mahallasi hududida uch nafar yigit Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani «Oqovul» mahallasida yashovchi Sh.E.ning uyali aloqa vositasi hamda 450 ming so'mini tortib olgan. Voqeabjabrланувчиларнига оғизи тақдимати берган.

Sh.E. ning arizasi asosida jinoyat ishi qo'zg'atilib, olib borilgan tezkor qidiruv tadbirlari natijasida ushu qonunbuzarlik Paxtakor tumanining «Toshkent» mahallasida yashovchi D.O'. hamda «Do'stlik» mahallasida yashovchi R.X. va J.X. tomonidan sodir etilgani aniqlandi. Ayblanuvchilardan uyali aloqa vositasi hujjatlashtirib olingan.

### BU HAM YETMAGANIDEK...

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan Forish tumanining «Yangiqish-



loq» shaharcha fuqarolar yig'ini hududidagi MCHJ tekshirilganida, tabiiy gazdan noqonuniy foydalanish holati aniqlandi. MCHJ rahbari S.R. ta'minotchi korxona bilan shartnomaga tuzishni unutgan, bu ham yetmaganidek, hisoblash uskunasi o'rnatilmagan. Uch oydan oshiq davom etgan o'g'irlik natijasida ta'minotchi korxonaga 36 million 252 ming so'm zarar yetkazilgani aniqlandi.

### QOCHMOQ – QUTULMOQ EMAS

Jizzax shahrining «Qassoblik» mahallasida yashovchi J.M.ning Xorazm viloyati Urganch shahridagi yashirin manzili aniqlanib, qo'lg'a olindi. Ushbu shaxs soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash hamda savdo qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarga qo'l urgani uchun 2022-yilning 1-iyulidan beri qidirilayotgan edi.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Alijon ABDUSATTOROV tayyorladi.

## MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI



## SO‘Z VA MATBUOT ERKINLIGI – TARAQQIYOTNING MUHIM SHARTI

Odatda dunyo mamlakatlari uch toifaga – taraqqiy topgan, rivojlanayotgan va rivojlanmagan davlatlarga bo‘linadi. Endi bu tabaqalashtirishda axborotlashtirish qay darajada ekani eng muhim va zarur ko‘rsatkichlardan biriga aylanib bormoqda. Chunki aholining axborot olish va tarqatish imkoniyati jamiyatda ijtimoiy komillik poydevori bo‘lmish emin-erkin fikrlash muhiti yaratilganidan dalolatdir. Bugungi kunda birorta davlat global axborot oqimidan chetda qolmagan, desak yanglismaymiz. Sababi, har qanday katta-kichik, muhim-nomuhim axborot istalgan lahzada dunyoga tarqalishi mumkinligi hech kimni hayratlantirmay qo‘ydi.

Shu o‘rinda mashhur yozuvchilardan biri Paulo Koe-loning «Inson ixtiro qilgan vayronkor qurollar orasida so‘z eng xatarli va kuchli qurolligicha qolmoqda» degan fikrini eslab o‘tishimiz o‘rinlidir. Negaki, XXI asrda axborot oqimi shu darajada jadallahshdiki, OAVga yo‘naltirilgan turli mafkuraviy g‘oyalarni ongiga niyoyatda kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning ortidan esa ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan voqeileklar sodir bo‘layotgani – u xoh salbiy bo‘lsin, xoh ijobiy – SO‘Z naqadar qudratli kuch ekanligini yaqqol belgilab beradi. Ya’ni, har bir axborotning o‘z egasi va iste’molchisi, ortidan ergashuvchi auditoriyasi bo‘ladi. Bundan tashqari, u ma’lum bir g‘oya singdirilishi ga xizmat qiladi.

So‘z va matbuot erkinligi to‘g‘risidagi qarashlar ancha oldin paydo bo‘lgan bo‘lsada, faqatgina 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ushbu erkinliklar qonunan belgilab qo‘yildi. Xususan, deklaratsiyaning 19-moddasida shunday deyiladi:

«Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega. Bu huquq hech bir to‘sitsiz o‘z e’tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’i nazar, izlash, olish va

huquqiy zamin yaratildi. Milliy axborot makoni va axborot infratuzilmasini rivojlantirmay turib, so‘z erkinligi va axborot ochiqligini ta‘minlashga erishib bo‘lmaydi. Shu maqsadda mustaqillik yillarda yurtimizda OAV uchun qulay infratuzilma yaratish borasida ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirildi.

Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo‘lib o‘tgan navbatdagi yig‘ilishda «Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul

tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi». Mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni ham e’tirof etish joiz. O‘zbekistonda so‘z, axborot va matbuot erkinligini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy islohotlar mustaqillikning dastlabki yillardanoq boshlangan. Xususan, 1991–2002-yillar orasida «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi, «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi, «Axborotlash tirish to‘g‘risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi, «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlarni qabul qilishga erishilgan. O‘tgan davrda sohaga oid qonunchilik bosqichma-bosqich takomillashdi, davlat rahbari tomonidan axborot sohasiga tegishli bir necha muhim farmon va qarorlar, davlat dasturlari qabul qilindi. Ko‘plab xorijiy ommaviy axborot vositalari

qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi qonun loyihasi muhokama qilindi. Ta‘kidlanganidek,

OAV xodimlari uchun muhim sanalar belgilangan. Jumladan, 3-may «Butunjahon matbuot erkinligi kuni» sifatida e’tirof etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda har yili 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi.

OAV davlat organlariga ularning faoliyati haqida axborot olish uchun og‘zaki yoki yozma so‘rov bilan murojaat etish huquqiga ega. Jurnalistlar axborot olish borasida daxsizlik huquqididan foydalanadi. Ularga nisbatan senzuraga yo‘l qo‘yilishi mumkin emas!

O‘zbekistonda akkreditatsiya qilinib, ularning mamlakatda erkin faoliyat yuritishlari uchun

yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat organlarining faoliyatini demokratlashtirish, inson

Biz bugun huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, journalistikaning butun dunyoda e’tirof etilgan, o‘zgarmas talab va mezonlaringa amal qilishimiz zarur. Bu mezonlarning eng asosiysi – xolislik va haqqoniylidir. Binobarin, matbuot maydoniga kirgan inson – u jurnalist bo‘ladimi, bloger bo‘ladimi, bundan qat’i nazar – ana shu qoidalarga amal qilishi shart.

Shavkat MIRZIYOEV



huquq va erkinliklarni himoya qilishga qaratilgan yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarni yaratdi. Bu esa, o‘z navbatida, amaldagi qonun hujjatlarini asosiy qonun nimizga muvofiqlashtirishni taqozo etmoqda. Yig‘ilishda ko‘rib chiqilgan qonun loyihasi bilan 28 ta qonun hujjatiga o‘zgartirish kiritish nazarda tutilmoqda. Xususan, «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasida Konstitutsianing 81-moddasidan kelib chiqib, «Omma-

tahkamlanib qo‘yilsa, har bir detalga qonun va sifatlari ijro bilan yondashiladi. Natijada OAVdagi xatoliklar, noxolis yondashuvlar sezilarli darajada kamayadi va suiiste molchiliklarga keskin zarba beriladi. Tabiiyki, kuchli huquqiy himoya to‘rtinchli hokimiyat deb ta‘riflanadigan soha va killarini tazyiq va turli bosimlardan saqlaydi, shu bilan bir qatorda ularni noxolislikka yo‘l qo‘ymasdan, to‘g‘ri yo‘nalishda faoliyat yuritishga undaydi. Qonunlarga hurmat yuqori darajada bo‘lsa, huquqiy himoya yanada kuchaytirilsa, tom ma’noda so‘z va matbuot erkinligiga erishiladi. Zero, so‘z va matbuot erkinligi taraqqiyotning muhim shartidir. Agar biz so‘z erkinligidan ortga chekinadigan bo‘lsak, barcha islohotlar orqaga ketishni boshlaydi. Shunday ekan, barchamiz mas’uliyat hissi bilan yashamog‘imiz darkor!

**Ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofigini ta‘minlash, shuningdek, OAV vakillari hamda aholi o‘rtasida keng muhokamaga sabab bo‘layotgan holatlarga munosabat bildirish maqsadida bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi hamda hududlarda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan axborot xizmatlarining ham salmoqli o‘rniborligini qayd etish joiz. Ularning tezkor chiqishlari orqali ko‘plab noo‘rin, yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldi olinmoqda. Bu esa fuqarolarimiz turli mish-mishlarga chalg‘ib qolmasligiga zamin yaratadi.**

Abror POYONOV,  
o‘z muxbirimiz.

 YO'L INTIZOMNI YOQTIRADI

## QOIDA BUZILMASA, FALOKAT YUZ BERMAYDI

Avtomobillar sonining ko'payib borishi har birimizdan yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioxo qilishni taqozo etadi. Qonun-qoidalarga bepisandlik bilan qarash oqibatida qanday ko'ngilsiz hodisalar ro'y berayotganini barchamiz ko'ryapmiz, guvohi bo'lyapmiz. Viloyat IIB JXX YHXB xodimlari bunday hodisalarning oldini olish va qoidabuzarliklarni aniqlash maqsadida bir qator profilaktik ishlarni amalga oshirmoqda.

– Viloyatimiz hududida yuz berayotgan YTHning sodir bo'lish jarayonlari tahlil qilingach, joylarda tushuntirish va targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot guruhi katta inspektori, kapitan Ulug'bek Shukurlayev.  
 – Mahallalar, korxona va tashkilotlarda targ'ibot tadbirlari tashkil qilinib, unda haydovchilar va yo'llovchilarning majburiyatları, harakat jarayonida nimalarga amal qilishlari yuzasidan tushunchalar berib borilyapti, videoroliklar ham tashkillashtirganmiz. Natijada baxtsiz hodisalar tu-fayli vafot etganlar ham, turli xil tan jarohati olganlar ham ancha kamaydi.



YTHning oldini olish yo'l holatiga ko'p jihatdan bog'liq. Masalaning bu tomoni YHXB xodimlarining diqqat markazida. Jumladan, yo'llarda yo'l belgilari o'rnatilib, eskirib yaroqsiz holga kelib qolganlari yangisiga almashтирildi. Piyodalar yo'lakchalar qu-

rilyapti, eskilari ta'mirlanyapti. Yo'llarning qatnov qismida harakat oqimini ajratuvchi to'siqlar va yo'naltiruvchi ustunchalar o'rnatilyapti. Qatnov qismidagi o'chgan yo'l chiziqlari yangitdan chizilib, transport vositalarining tartibili harakatini ta'minlashga e'tibor qaratilyapti.

Bolalar bilan bog'liq salbiy hodisalarning oldini olish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida

«Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi» hamda «Yo'l harakati qoidalari bilimdoni» shiori ostida viktorina va tanlovlardan o'tkazib kelinmoqda. Yaqinda Peshku tumanidagi «Yulduzcha» nomli NMTTda xuddi shunday viktorina tashkillashtirildi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Buxoro viloyati.

 PROBATSIIYA

## TUZALISH YO'LIDA

**Andijon shahri bo'yicha IIOFMB Probatsiya bo'limi katta inspektori, kapitan Jahongir Munirovga biriktirilgan hudud viloyat markazidagi o'nta mahallani o'z ichiga oladi. Katta inspektorning profilaktik hisobida 220 nafar fuqaro qayd etilgan.**



– Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'Imagan jazoga hukm qilin-gan shaxslar bilan maqsadli individual ishlar olib borilmoqda, – deydi Probatsiya bo'limi katta inspektori, kapitan Jahongir Munirov. – Avvalo, kuchlar kontingenent bandligini ta'minlashga qaratiladi. Shu maqsadda erkin ishchilar yarmarkalari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Kasb-hunarga ega bo'Imaganlar «Monomarkaz» qoshidagi qisqa muddatli kurslarga yuborilib, mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanadi. Xotin-qizlar tikuvchi-motorist, qandolatchi, novvoylik ko'nikmalariga ega bo'lleshadi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yigitlarga imtiyozli kredit olishda yordam ko'rsatilmoqda.

Nazorat ostidagi kontingenenting xonardonlariga borish, ularning yaqinlari va qarindoshlari bilan suhbatlar o'tkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yuklangan vazifalarni bajarish uchun ichki ishlar organlarining tarmoq tuzilmalari hamda «Mahalla», «Sog'lon avlod uchun» xayriya jamg'armalari, «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda-

miz. Shu bilan birga, nazorat ostidagi shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish choralar ko'rilmoxda.

Afsuski, bir qator ijobji odimlariga qaramay, mahkumlar tomonidan qonun hujjatlariiga rioxo qilmaslik va jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovslash holatlari uchrab turibdi.

Kapitan J. Munirov Andijon davlat universiteti bitiruvchisi. 2016-yildan buyon viloyat markazidagi turli hududlarda profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilgan. Jahongir o'z tajribasi bilan beminnat o'rtoqlashgan va kasb mahoratining nozik jihatlarini o'rgatgan profilaktika inspektori, mayor Alisher Abdupattoyevni o'zining birinchi ustozini, deb biladi.

O'tgan yildan boshlab probatsiya bo'limida faoliyat yuritayotgan kapitan J. Munirovga bo'lim boshlig'i, kapitan Rustamjon Tohirov ustozlik qilmoqda.

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.

**Suratda:** kapitan J. Munirov (o'ngda) inspektor, katta leytenant Sh. Adhamov bilan.  
Andijon viloyati.

 Урок духовности и просвещения

# СВОБОДА СЛОВА И ПЕЧАТИ – ВАЖНЕЙШЕЕ УСЛОВИЕ ПРОГРЕССА

**В современном обществе свобода слова – фундаментальное право. Свобода слова юридически регулируется порядка 100 договорами ООН, более чем 60 договорами ЮНЕСКО, 200 договорами Совета Европы и свыше 30 международными конвенциями, декларациями и международными договорами ОБСЕ.**



**С**татья 19 Всеобщей декларации прав человека гласит: «Каждый человек имеет право на свободу убеждений и на свободное выражение их; это право включает свободу беспрепятственно придерживаться своих убеждений и свободу искать, получать и распространять информацию и идеи любыми средствами и независимо от государственных границ».

В Узбекистане свобода слова и печати – приоритет государственной политики. Как отметил Президент Шавкат Мирзиёев, «гласность и свобода слова – это требование времени, требование реформ в Узбекистане».

В республике осуществляется масштабная работа по укреплению атмосферы открытости в обществе, превращению СМИ в надежный мост для диалога с народом. «В обновленной Конституции страны соответствующие положения были еще больше усилены, что говорит о последовательности наших действий в этом направлении», – подчеркнул Президент.

Для достижения высоких рубежей, отраженных в Стратегии развития Нового Узбекистана, отечественные медиакомпании активно участвуют в общественно-политических процессах. Осваивается передовой зарубежный опыт, внедрены современные информационные технологии. СМИ уверенно интегрируются в международное информационное пространство. Так, платформа «Over-the-top» Национальной телерадиокомпании Узбекистана, объединяющей теле- и радиоканалы с круглосуточным вещанием, позволяет центральным телеканалам транслировать передачи по всей стране и в более 100 государств мира.



Традиционными стали встречи руководителей органов управления с представителями СМИ, обсуждение на пресс-конференциях злободневных вопросов, касающихся жизни государства и общества. Такой подход – важнейший механизм проводимой в стране политики открытости. Сегодня СМИ стали трибуной для выражения мнений и активными защитниками интересов народа.

**В** настоящее время в Узбекистане насчитывается 2140 средств массовой информации. Среди них 65 процентов – негосударственные, что свидетельствует о продолжающихся структурных преобразованиях в сфере, служит фактором обеспечения плюрализма мнений.

Под действие права человека на свободу выражения мнений подпадает право на доступ к ин-

тернету. Наряду с традиционными средствами массовой информации стремительно развиваются интернет-издания, количество которых достигло 745, и их аудитория неуклонно растет. Отмечена повышенная активность в домене .uz.

В центре внимания руководства страны вопросы подготовки высококвалифицированных кадров для сферы, обладающих широким кругозором, владеющих иностранными языками и информационными технологиями. Сотни



**Радик ТУМПАРОВ,  
соб. корр.**

печения прозрачности деятельности государственных органов и ведомств, определения индикаторов их открытости внедрена электронная площадка «Open.index», публикуется Индекс открытости по оценке работы государственных органов и организаций.

**М**ногогранную деятельность органов внутренних дел освещают журналисты Объединенной редакции, информационных служб МВД, территориальных подразделений и отраслевых служб. В настоящее время количество веб-сайтов системы МВД Узбекистана в интернете достигло 22, официальных страниц в социальных сетях – 74, в том числе в Telegram, Youtube, Facebook. К примеру, только в мессенджере Telegram, являющемся наиболее популярным в Узбекистане, создано 17 официальных страниц, на которые подписано около 411 тысяч человек. Журналисты, работающие в структуре ОВД, стремятся своевременно доносить до соотечественников достоверную информацию, держать население в курсе происходящего в области профилактики правонарушений и борьбы с преступностью. Публикуемые ими материалы посвящены также вопросам правовой пропаганды, обеспечения общественной безопасности и укрепления правопорядка. Эта деятельность осуществляется в свете реализации постановления Президента «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением».

В условиях углубления демократических реформ реализация принципа свободы слова и печати обеспечивает объективное и оперативное отражение социальной и политической жизни общества, является важнейшим условием его поступательного развития.





**ФАХРИЙЛАР — ФАХРИМИЗ**

## ИБРАТЛИ УМР

1946 йил Тошкент вилоятининг Чирчиқ шаҳрида туғилган Шавкат Мамадалиев ҳарбий хизматдан кейин ўрта мактабда ўқитувчилик қилган. Тошкент давлат университети юридик факультетининг сиртқи бўлумида таҳсил олиш билан бирга, Чирчиқ шаҳрида турли лавозимларда ишлади.

1974 йил йўлланма билан Сирдарё вилояти ИИБ тасарруфига юборилган Ш. Мамадалиев Сирдарё тумани ИИБ бошлигининг шахсий таркиб билан ишлаш бўйича ўринbosари вазифасида хизматни бошлади. Ёш ходимга генерал-майор Отамурод Мухаммадиев, полковник Серикбой Жуматаев каби устозлар йўл-йўрик кўрсатишиди. 1974–1976 йилларда туман ИИБ бошлигининг биринчи ўринbosари, 1977–1979 йилларда Мехнатобод тумани ИИБ бошлиги лавозимларида фаолият кўрсатган Ш. Мамадалиев ушбу туманларда жиноятчиликка қарши курашиб борасида сезиларли натижаларга эришди.

Саксонинчى йилларнинг бошида қарийб икки йил давомида Москвада таълим олиб қайтган Шавкат Мамадали-

евни Сирдарё вилояти ИИБ штаб бошлигининг ўринbosари этиб тайинлашади. Бўлимнинг иши барча жараёнларни мувофиқлаштириш, ҳужжатларни тўғри юритиш каби вазифаларни ўз ичига оларди. Аллақачон муайян тажрибага эга майор Ш. Мамадалиев учун бу ишлар асло қийинчилик туғдирмади. 1989 йилда эса Боёвут тумани ИИБ бошлиги лавозимида тайинланди.

1994–1997 йиллар давомида Сирдарё вилояти ИИБ М ва ФРБ бошлиги вазифасида сидқидилдан хизмат қилиб, тизимдаги 33 йиллик фаолиятидан сўнг ҳурмат ва эҳтиром билан пенсияга чиқди.

Полковник Шавкат Мамадалиевнинг ўнлаб шогирдлари бор. Улар орасида полковник Тоҳир Мусаев, Сирдарё тумани

— Босиб ўтган ҳаёт йўлимдан мамнунман, — дейди Шавкат ота. — Ҳали-ҳамон ёш ходимлар йўқлаб туришади. Уларга шу юрт, шу ҳалқ осойишталиги учун ҳалол ва садоқат билан хизмат қилишни, ҳеч қаҷон ўз бурчига ҳиёнат қилмасликни маслаҳат бераман.

ИИБ ЖҚБ катта тезкор вакили лавозимида ишлаган капитан Эркин Абдураҳмонов, Сирдарё вилояти ИИБ бошлигининг собиқ ўринbosари, полковник Бахтиёр Жуматаевларнинг номини алоҳида тилга олади.

Шавкат ота тўрт нафар фарзандни тарбиялаб, ўйли-жойли қилди. Ўғли Отабек Шавкатов ота изидан кетди. Узоқ йиллар

ички ишлар тизимида фаолият кўрсатиб, майор унвонида пенсияга чиқди.

78 ёшни қаршилаган Шавкат ота ўз умрини осойишталиқ, жамоат тартибини саклаш, жиноятчиликка қарши курашга сарфлаганидан фаҳрланади.

**Абдураҳмон МУСТАФОҚУЛОВ,**  
ӯз мухбиримиз.  
Сирдарё вилояти.

**ХОТИРА АБАДИЙ. ЖАСОРАТ МАНГУ**

## МАРДИНСОН ФАРЗАНДИМАН

**Отам Шарифжон  
Турсунов 47 ёшида  
вафот этганида мен  
эндигина ўн бир  
ёшда эдим...**

Отам 1950 йилда Наманган туманида туғилган. 1987 йилда ички ишлар органлари сафига қабул қилиниб, хизматдан ажралмаган ҳолда, Наманган давлат педагогика институтида ўқиган. Наманган шаҳар ИИБга қарашли тиббий ҳушёрхона бўлуми бошлиги лавозимида хизмат қилган.

Фаолияти давомида кўплаб дўстлар орттирган, кўпчиликнинг меҳру эътиборини қозонган. Ҳали ҳануз отамнинг дўстлари, ҳамкаслари билан алоқада бўлиб турман. Қайси даврага борсан, албатта, эслашади, илиқ фикрлар билдиришади.

1997 йилнинг 24 марта куни отам ҳамкаслаб-



ри билан йиғилишдан чиқиб, хизмат жойига етиб бориш учун машина тўхтатади. Ҳамкасли Марат Тошбоев билан ичидаги йўловчиси бўлган автомашинага чиқади. Отам олд ўриндиқка, ҳамкасли эса орқа ўриндиқка ўтиради. Орқа ўриндиқдаги йўловчи ўзини шубҳали тутиб,

эътиборни тортади. У экстремистик гурӯҳ етакчиларидан бири бўлади. Вазият жиддийлашаётганини сезган йўловчи ўзини беҳаловат тутади. Ходимлар оёқ остига бир дона ўқ ташланганини сезиб, ҳаракатга киришади. Машина ўриндиғидан ортга бурилган отамга қарши отилган ўқ ўша заҳотиёқ унинг ҳаётига нуқта қўйган. Марат Тошбоев ҳам олишувда ҳалок бўлади.

**Отам вафотидан сўнг Президент фармонига кўра, «Жасорат» медали билан тақдирланди.**

Ўша кезлари онамга қанчалар оғир бўлганини катта бўлганимдан сўнг ҳис қилганман. Аёл боши билан қийинчилигу машақатларни енгиги, беш фарзандни оёқка

турғазди. Бунинг учун онажонимдан бир умр миннатдормиз.

Мен гарчи педагогика соҳасида таҳсил олган бўлсам-да, ота касбига бўлган ҳавасим баривир устун келди. Онамга бу ҳақда айтганимда, аввалига унамади. Аҳдим қатъиилигини кўргач, ахийри рози бўлган.



Отамнинг суратларига боқиб, у ҳақдаги яхши хотиралар билан улғайдим. Шарафли касбимиз машақатли бўлса-да,

ҳеч қаҷон бу соҳани танлаб адашмаганимни ҳис қиласман.

Инсон умри боқий эмас, лекин унинг яхши амаллари номини абадиятга дахлдор қиласми. Таскин шуки, мен мард ва жасур, Ватан тинчлиги, осойишталиги йўлида азиз жони қурбон бўлган отанинг фарзандиман. Фарзандларимга ҳам отам ҳақида, бобосининг жасорати ҳақида кўп сўзлаб бераман.

Вилоят Ички ишлар бошқармаси, туман ИИБ раҳбарияти ҳар байрамда отамни хотирлаб, хонадонимизга келишади. Ширин хотиралар ҳам, аччиқ қисмат ҳам эсланади. Шундай лаҳзаларда отам билан янада фаҳрланиб кетаман.

**Нодирбек ТУРСУНОВ,  
Наманган тумани ИИБ  
ЖХХ ҲПБ профилактика  
катта инспектори,  
капитан.**



# XODIMLAR SOG'LOM BO'LSA

faoliyat samarali kechadi

**Navoiy viloyati IIB Tibbiyot bo'limi shifokor va hamshiralari xizmat qilayotgan xodimlar, ularning oila a'zolari va faxriylarning salomatligini saqlashda sharafli va xayrli vazifani sidqidildan ado etishmoqda.**

Poliklinika va 18 o'ringa mo'ljallangan kunduzgi stasionar, OITS laboratoriya, bioximanalizator, kvars kamera, refrektometriya va fizioterapevtik apparatlar aniq tashxis qo'yishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

— Yaqinda bo'limga zamonaviy ultratovush tekshiruvi hamda raqamli rentgen apparati olib kelindi. Endilikda xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirishda kasalliklarni barvaqt aniqlash imkoniyati oshdi, — deydi umumiy amaliyat shifokori Feruza Ashurova.

Ichki ishlar organlari xodimlari, harbiy xizmatchilari, faxriylari va ularning oila a'zolarining salomatligini muhofaza qilish, sifatli, qulay va yuqori malakali tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



davri ichida «Virusli hepatit», «OITS», «Gripp», «O'n ikki barmoq ichak yarasi kasalligi», «Ortiqcha vaznning oldini olish» kabi ko'plab mavzularda davra suhbatlari tashkil etildi.


Yaqinda IIV Markaziy gospitali, Markaziy poliklinikasi, «O'zbekiston» sanatoriysining malakali shifokorlari hamda viloyat IIB Tibbiyot bo'limi mutaxassislari bilan hamkorlikda xodimlarni hamda nogironligi tufayli dispanser nazoratida turuvchi faxriylarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi.

Shuningdek, og'ir ahvolda yotgan faxriylar, xizmat vaqtida tan jarohati olgan xodimlar holidan xabar olindi. Ular ham tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, tegishli tavsiyalar berildi, zarur dori-darmonlar bilan ta'minlandi. Ushbu xayrli tadbir Navoiy shaharda boshlanib, olis Zarafshon shahri, Karmana, Uchquduq va Tomdi tumanlarida davom ettildi. Tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan xodimlarning 48 nafariga statsionar sharoitda, 189 nafariga ambulator sharoitda, 28 nafariga esa sanatoriya sog'lomlashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Muxtasar qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlari sog'lom bo'lsa, ularning faoliyati samarali kechadi. Viloyat IIB Tibbiyot bo'limi salomatlik posbonlarining bu yo'ldagi xizmati e'tirofga loyiqidir.

**Mahliyo XOLOVA,  
o'z muxbirimiz.**

Navoiy viloyati.



Joriy yilda 68 nafar xodim va ularning oila a'zolari hamda 15 nafar faxriyga tog'li, bahavo sanatoriylarga yo'llanmalar berildi.

— Pensiyaga chiqqanimga qariyb 20 yil bo'ldi. Qand kasalidan aziyat chekaman. Qon bosimim ham tez-tez ko'tarilib turadi. Tibbiyot bo'limi shifokorlari baraka topishsin. Ular uyimga kelib, sog'lig'imni tekshiradilar, hol-ahvol so'rabb turishadi. Deyarli har yili turmush o'rtog'im bilan sanatoriya dam olamiz. Biz faxriylarga yaratilgan imkoniyatlar va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdan bag'oyat mammunmiz, — deydi iste'fodagi mayor Sayfulla Yodgorov.

Bundan tashqari, Tibbiyot bo'limi mutasaddilari soha xodimlari o'rtasida muntazam ravishda targ'ibot tadbirleri o'tkazishadi. Joriy yilning o'tgan



## YASHIL CHIROQ – 2024

Poytaxtimiz ko'chalarida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish va yosh avlodni madaniyatli harakat ishtirokchilari etib tarbiyalash maqsadida Toshkent shahar IIBB YHXB hamda Maktabgacha va mifikta ta'limi boshqarmasi hamkorligida «Yashil chiroq – 2024» musobaqasining shahar bosqichi o'tkazildi.



Musobaqada poytaxt tumanlarida g'oliblikni qo'liga kiritgan 12 ta jamoa ishtirok etib, belgilangan shartlar bo'yicha o'zaro bellashdi. Yakunda esa barcha raqiblarini dog'da qoldirgan Mirobod tumanidagi 110-maktab o'quvchilari qo'liga kiritib, respublika bosqichi yo'llanmasini qo'iga

kiritdi. Ikkinci va uchinchi o'rinnar Yashnobod tumanidagi 244- va Yangihayot tumanidagi 303-maktab o'quvchilariga nasib etdi.

Endi navbat respublika bosqichi bellashuvlariga.

**Qahramon XUDOYBERGANOV,  
podpolkovnik.**



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdaramsiy](https://t.me/postdaramsiy)



[www.facebook.com/postdaуз](https://www.facebook.com/postdaуз)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

## Служба профилактики

– На данном участке работаю семь лет. Не всегда здесь было тихо и спокойно. Понадобилось время, чтобы навести порядок, – говорит майор А. Ахмадалиев.

– Преступление легче предотвратить, чем раскрыть. Это прописная истина. Поэтому основное усилие вместе с активистами махаллинского схода граждан направляем на социальную профилактику. В целях предотвращения противоправных деяний проводится индивидуальная работа с ранее судимыми гражданами, лицами, склонными к совершению правонарушений.

В ходе обходов выявляются проблемы разного характера. Стаем решать их на месте. Работаем вместе с председателем махалли Шавкатбеком Ибрагимовым, помощником хокима Шухратбеком Орифжоновым, женской активисткой Муазамхон Халиловой.

Как на территории махалли начали устанавливать камеры наружного видеонаблюдения, количество правонарушений стало резко уменьшаться. От зоркого «глаза» камеры ничего не скроешь. Сейчас в общей сложности в режиме онлайн работают около 180 камер наружного видеонаблюдения.

Адхамjon Ахмадалиев уроженец Балыкчинского района. После окончания исторического факультета Андижанского государственного университета несколько лет работал учителем в сельской школе. В 2015 году

# ОПЫТА МАЙОРУ НЕ ЗАНИМАТЬ

**В махалле Исломобод города Андижана, где проживает более шести тысяч человек, за последние два года не совершено ни одного преступления. В чем секрет успеха? Об этом рассказывает старший инспектор профилактики майор Адхамжон Ахмадалиев.**



был принят на службу в органы внутренних дел и назначен инспектором профилактики первого отделения Андижанского ГОВД. Его наставниками были старший инспектор профилактики подполковник Фазлидин Шокиров и инспектор профилактики майор Шукрулло Мамасидиков.

Сегодня майор Адхамжон Ахмадалиев профессионал своего дела. Его ученики капитаны Зифарбек Низамутдинов и Дилшодбек Обидов, старший лейтенант Асрорбек Гавхаров, лейтенант Аброрбек Алимов работают в службе профилактики и подразделениях уголовного розыска.

В подчинении у майора А. Ахмадалиева четыре территориальных инспектора профилактики. Майор Алимардан Сармонов обеспечивает правопорядок в махалле Шурбулак, капитаны Дилшодбек Обидов и Азамхон Хожиев служат в махаллях Дустлик и Пистамозор, старший лейтенант Асрорбек Гавхаров работает в махалле Навбахор. Судя по сводкам, на вверенных им участках царят покой и безопасность граждан.


Майор А. Ахмадалиев не только хороший сотрудник, но и примерный семьянин. Вместе с супругой, Машхурой, воспитывают троих детей. Старший сын, Темурбек, которому исполнилось 10 лет, мечтает стать стражем порядка. Пятилетней Муслимахон еще предстоит сделать свой выбор, младшая Иномахон счастлива, когда отец берет ее на руки.

**Борис КЛЕЙМАН,  
соб. корр.**

**На снимке:** старший инспектор профилактики майор Адхамжон Ахмадалиев с председателем МСГ «Исломобод» Шавкатбеком Ибрагимовым.

**Андижанская область.**

## ФОТОИНФОРМАЦИЯ



К знаменитому Сангардакскому водопаду, расположенному в селе Сангардак Сариасийского района Сурхандарьинской области, не прерывается поток путешественников и туристов. В целях обеспечения безопасности и правопорядка здесь несут службу сотрудники подразделений органов внутренних дел.



Территория, прилегающая к водопаду, в зоне ответственности старшего инспектора профилактики подполковника Улугбека Хакназарова.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

 XIZMATLARDA

# «KAMARSADA» OSOYISHTA MASKANGA AYLANADI

**Buyuk ipak yo'lida joylashgan qadimiy va navqiron Chust shahri sayyohlarni o'ziga maftun etayotgan fusunkor hududga aylanib bormoqda.** Ushbu go'zal shaharga kelgan kishilar ekobog'da usta oshpazlar tayyorlagan Chust oshidan bahramand bo'lmay ketishmaydi. Chust pichog'i va do'ppisining dovrug'i esa yetti iqlimga ma'lum va mashhurdir.

Tuman markazidagi «Kamarsada» mahallasining aholisi 3300 nafarga yaqinlashib qoldi. Mahallaning o'sish drayveri hunarmandchilik va tadbirkorlik bo'lib, aholi tomonidan tayyorlangan mahsulotlar savdosi ham ekobog'da tashkil etiladi.

– Ekobog' mahallamizning asosiy daromad manbai hisoblanadi. Chevar opasingillarimiz uyda ham bekor o'tirishmaydi. Kamarsadalik xotin-qizlarning nozik did bilan tikkan do'ppilari, so'zanalari xaridorgir, – deydi Chust tumanı IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Elmurod Suleymonov. – Albatta, barcha muvaffaqiyatlarimizni mahalladagi tinch va osoyishta muhit bilan bog'lash o'rini.

**Odatda aholi gavjum joylarda jinoyatlar sodir etilishi mumkin. Bu esa o'z-o'zidan mahalla ko'rsatkichlariga ta'sir etmasdan qolmaydi. O'tgan yil yakuni bo'yicha**

**mahalla «qizil» toifaga kiritilgan edi.** «Kamarsada»da faoliyat boshlaganiga bir yil bo'lgan Elmurod Suleymonovning sa'y-harakati bilan joriy yilda mazkur hudud «sariq» toifaga o'tdi. Demak, kelgusida bundan-da yaxshiroq natijalarga erishish imkonibor. Buning uchun Elmurod Suleymonov astoydil harakat qilmoqda.

Podpolkovnik Elmurod Suleymonov yil boshidan buyon 22 nafar fuqaroni profilaktik hisobga oldi. Huquqbuzarlik va aholining muammolarini bartaraf etish bo'yicha mutasaddi idoralarga 3 marotaba taqdimnomalar kiritdi, 124 nafar fuqaroning murojaatlari qonuniy bartaraf etilishiga boshqosh bo'ldi. Hududda 131 ta huquqbuzarlik holati aniqlanib, 3 nafar tazyiqqa uchragan xotin-qizga himoya orderi berildi. Uning jonbozliklari natijasida mahallada jinoyatchilik va huquqbuzarliklar keskin kamayishiga erishildi.



Hamkor tashkilotlar ko'magida muqaddam sudlangan fuqarolar, nazorat ostidagi shaxslar bandligi ta'minlanmoqda. Masalan, muqaddam sudlangan fuqaro Begzod Inomov ekoparkka posbonlikka joylashtirildi. Endilikda u hududda osoyishtalikni ta'minlashda podpolkovnik E. Suleymonova yaqindan yordam bermoqda.

«Kamarsada»da mehnatga layoqatli aholi soni 1820 nafarni tashkil etgani

holda, 1640 nafari ish bilan band. Ishsizlar soni kamayib bormoqda. Migrantlar xonadonidagi uchrashuvlarda esa xorijda ishlayotgan fuqarolarni yurtga qaytarish choralar ko'rilmoxda.

Mahalla yettiligi bilan hamkorlikda xonadonma-xonadon aniq, manzilli o'rganishlar olib borildi. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Baxtiyor Toshxo'jayev, xotin-qizlar faoli Hanifa G'oziyeva bilan 8 ta ajrim yoqasidagi oilalar yarashtirildi.

– «Kamarsada»ni jinoyatdan xoli hududga aylantirish borasida harakatlarimiz davom etmoqda. Hammasi birgalikdagi amaliy harakatlarimizga bog'liq, – deydi Elmurod Suleymonov ishonch bilan. Biz esa uning mas'uliyatli ishlariiga omad va zafarlar tilab qolamiz.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,  
o'z muxbirimiz.  
Namangan viloyati.**



## «YO'L XARITASI» ASOSIDA

Davlatimiz rahbarining yoshlarning bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ta'lim-tarbiyadagi mavjud muammolarni bar-taraf etish bo'yicha topshirig'iga asosan Qashqadaryo viloyati 3-sektorlari hududida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyat hududidagi 207 ta mahallada yashovchi yigit-qizlar o'rtasida o'tkazilgan xatlov tadbirlari yakuniga ko'ra turli toifalarga ajratilgan yoshlar «Yoshlar platformasi»ga kiritildi. «Qizil» toifadagi yoshlardan 3151 nafari viloyat Ichki ishlar boshqarmasiga biriktirildi.

Koson tumanida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda olib borilgan o'rganishlar davomida tuman 3-sektori hududidagi 20 ta MFYda yashovchi yoshlar bilan ularga biriktirilgan rahbar xodimlar tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Mudin qishlog'idagi



15-maktabda vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi alohida sinfxona tashkil etilib, jihozlandi. O'quvchilardan iborat «Vatan tayanchi» otryadi tuzilib, ularga viloyat IIB TVBSO xodimlari tomonidan o'quv mashg'ulotlari o'tkazish yo'lgan qo'yildi.

Otalikqa olingan yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish va qonunga itoatkorlik hissini shakllantirish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda huquqiy targ'ibot kunlari, tanlov va musobaqalar, sayyor sud majlislari ko'rgazmali tarzda tashkil etildi. Bun-

dan tashqari, otalikqa olingan 7451 nafar yosh «Yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari» o'quv dasturi asosida IIV Akademiyasi hamda vazirlik Qashqadaryo akademik litseyining malakali professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitildi. Olib borilgan ana shunday ishlar natijasida joriy yilning o'tgan davrida viloyatda yoshlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishi 4,2 foizga kamaydi.

**Mehroj TELYAYEV,  
mayor.  
Qashqadaryo viloyati.**

# TOG'LI HUDDLARDA

## TOSHKENT VILOYATI

Serviqor tog'lar bag'rida joylashgan Bo'stonliq tumani 1968-yilda tashkil topgan. Maydoni 4940 km.kv. Aholisi 180 mingga yaqin. Tumanda 2500 dan ortiq kichik biznes subyektlari hamda 40 ga yaqin turli korxonalar mavjud. Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan chegaradosh, 60 ta mahalladan iborat ushbu tumanning ma'muriy markazi G'azalkent shahri.



Xizmat faoliyatining ancha qismini shu tog'larda o'tayotgan osoyishtalik posbonlari o'z vazifalarini sidqidildan bajarib kelishmoqda.

Shuningdek, har yili huquqni muhofaza qilish organlari hamda Mudofaa vazirligining qo'shma rejasiga asosida mazkur tizimlarning harbiy xizmatchilari va xodimlari ishtirokida mavsumiy reyd tadbirdi o'tkazil kelinadi.

Ushbu hududdagi osoyishtalik posbonlari zimmalaridagi mas'uliyatli vazifalarni bekam-u ko'st ado etish maqsadida yilning barcha fasllarida fidoylik bilan xizmat qilishmoqda. Ular transport vositalari harakatlanshi qiyin bo'lgan joylarga otda chiqib, kriminogen vaziyatni nazorat qilishmoqda. Ob-havo noqulay bo'lgan qishning yog'inli kunlarida esa tog'dagi o'rmon xo'jaliklarining ishchilarini yordamida yo'llarni tozalab, keyingi manzilga otlanishadi.

Soha xodimlari viloyatning barcha tog'li hamda tekislikdagi chegaradosh hududlarida huquq-tartibotni, tinchlik-osoyshtalikni ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelayotir. Ular boshqa


xizmatlar vakillari bilan birgalikda turli tadbirdarlari amalga oshirib, jinoyatchilik ilidziga bolta urishmoqda.

Osoyishtalik posbonlari tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida joriy yilning o'tgan davri ichida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq 21 ta jinoyat, 14 ta o'g'rilik, 9 ta noqonuniy ov quroli va o'q-dori saqlash, 6 ta noqonuniy diniy targ'ibotga oid hamda 3 ta qimorxona, 6 ta fohishaxona saqlash holatlari aniqlandi. Yana 6 nafar qidiruvdagagi shaxs qo'liga olindi.

Masalan, tumanning «Istiqlol» mahallasida yashovchi N.M. qo'shni tumanda istiqomat qiluvchi B.X.ga gugurt qutisiga joylangan giyohvandlik vositasini 750 ming so'mga sotayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'liga olindi. Shuningdek, firibgarlik jinoyatini sodir etib, Samarqand viloyati ichki ishlar organlaridan yashirinib yurgan M.Sh. Bo'stonliq tumani «Burchmullo» mahalla fuqarolar yig'ini hududida ushlandi.

**Mixli SAFAROV,  
o'z muxbirimiz.**

## SURXONDARYO VILOYATI



Surxon vohasining bir qismi betakror tabiat, manzarasi, tabiiy boyliklariga ega purviqor tog'lar bilan o'ralgan. Ana shu tog'li hududlarda viloyatning 48 ta mahallasi joylashgan. Ushbu mahallalar aholisi tinch-osoyishticha hayot kechirishi uchun viloyat IIB tegishli xizmati xodimlari ham tun-u kun hushyorlik bilan xizmat olib borishmoqda.

Shu yilning o'tgan 5 oyi mobaynida giyohvand modda yetishtirish, oldi-sotdisi bilan shug'ullanishga oid 20 ta jinoyat «issiq izida» fosh etildi. Qolaversa, 3 ta noqonuniy quroldan foydalanan holati aniqlanib, tegishli tartibda rasmiylashtirildi.

Bilasiz, Surxondaryo viloyati 3 ta davlat, xususan, Afg'oniston, Turkmaniston va Tojikiston bilan chegaradosh. Shu bois ayni xizmat hududlarida tartib-intizomni saqlash, aholining xavfsizligini ta'minlash barobarida, ayniqsa, chegara hududlarni noqonuniy kesib o'tish holatlariga yo'il qo'ymaslik uchun hushyorlikni qo'ldan boy bermaslikka harakat qilinmoqda. Shu yilning o'zida 3 ta ana shunday holat aniqlandi va qonuniy chora ko'rildi.

Tog'li va chegara hududlaragi vaziyatni qat'iy nazorat qilib borilmoqda. Ayniqsa, tog'larda cho'ponlik qilayotgan fuqarolarning harakatini tartibga solish uchun tegishli choralar ko'rilmoxda. Bundan tashqari, aholi orasida pasport-viza tadbirdi ham o'tkazib kelinmoqda.

Chegara tozalash tadbirlari da, tog'li va chegara mahallalarda yashovchi fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy muammolari ham o'rganilib, elektr energiyasi, ichimlik suvi, gaz va yo'il muammolari aniqlansa, tuman hokimliklariga taqdimnomalar kiritiladi.

Aytish kerakki, ayni yoz mavsumida tog'li hududlardagi bolalar oromgohlari gavjum pallaga kiradi. Voha hududida 5 ta oromgoh ana shunday tog'li hududlarda joylashgan bo'lib, profilaktika inspektorlari bilan birgalikda aholi va bu oromgohlarga keladigan bolalarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida joylarida profilaktik tadbirdilar boshlab yuborildi. Jumladan, Sherobod tumanidagi Shalqon qishlog'ida «Neftchilar», «Beshbuloq Surxon Sherobod», Vandop qishlog'idagi «Vandop oltin bulog'i», shuningdek, Sariosyo tumanining tog'li hududdagi 2 ta bolalar oromgohi qat'iy nazoratga olindi.

**Feruza RAHMONQULOVA,  
o'z muxbirimiz.**

## BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

# HALOLLIK – SHIORI UNING

Koson tumani markaziy shifoxonasi ro'parasida o'rnatilgan svetoferning qizil chirog'ida «Lada largus» avtoulovi to'xtab turgan vaqtida tumanning «Mash'al» MFYda yashovchi fuqaro O'.T. boshqaruvida bo'lgan «Tiko» orqa tomonidan kelib urishi natijasida yo'l-transport hodisasi ro'y berdi.

Tuman IIB JXX YHXB YPX inspektori, katta serjant O.Suyunov voqeja joyiga yetib bordi va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirdi. Mastlik holatini aniqlash bo'yicha haydovchi O'.T. tibbiy tekshiruvdan o'tkazilganida esa, uning mastlik darajasi og'ir ekani aniqlandi. Tabiiyki, bu holat ham rasmiylashtirilib,

avtomashina vaqtinchalik jarima maydoniga joylashtirildi.

Oradan bir necha kun o'tgach, o'zini O'.T.ning yaqin do'sti ekanligini aytgan fuqaro D.N. to'plangan hujjatlarni sudga oshirmslik va hech qanday chora ko'rmaslik evaziga inspektorga 400 AQSH dollarini miqdorida pora taklif qiladi...



Hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbir davomida, fuqaro D.N. katta serjant O.Suyunovga 400 AQSH dollari miqdoridagi pulni pora tariqasida bergen vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlandi.

Tizimda ko'p yillardan beri vijdonan xizmat qilib kelayotgan katta serjant O.Suyunov yana bir marotaba o'zining xizmat burchiga, qasamyodiga sadoqatini namoyon etdi.

**O'z muxbirimiz.  
Qashqadaryo viloyati.**



## Международное сотрудничество

**Делегация во главе с заместителем начальника полиции Гонконга, КНР, Чэнь Цзюньшенья посетила Ташкентскую область в целях обмена опытом правоохранительных органов в сфере обеспечения безопасности туристов.**

Гости ознакомились с деятельностью Управления обеспечения безопасного туризма ГУВД, применяя технологиями видеонаблюдения, экстренной связи, направлениями сотрудничества государственных органов с туристическими компаниями.

Стороны подчеркнули значимость диалога специалистов для дальнейшего повышения эффективности деятельности.



## ■ Джизакская область

**В области последовательно осуществляются меры по укреплению материально-технической базы службы профилактики правонарушений.**



В начале года 28 опорных пунктов органов внутренних дел были обеспечены мебелью.

Кроме того, хокимият Арнасайского района выделил 8 опорным пунктам столы, стулья и шкафы, а

хокимият Мирзачульского района предоставил 5 опорным пунктам комплекты оргтехники. Все

инспектора профилактики региона получили в распоряжение планшеты, технические средства связи.

В центре внимания находятся также вопросы обеспечения сотрудников сферы служебным жильем. С начала года в махалле Лалмикор Зарбадарского и махалле Самарканда Зафарабадского районов построены дома для представителей сферы. Возводятся здания для сходов граждан махаллей Олтин водий Арнасайского, Ёйилма и Янги хаёт Шараф-Рашидовского районов.

Это позволит создать необходимые условия для инспекторов профилактики махаллей. До конца года планируется обеспечить дежурные части городских и районных отделов внутренних дел алкотестерами и беспилотными летательными аппаратами, что позволит существенно повысить эффективность работы.

**Уткир НИЗОМОВ,  
капитан.**



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdaуз](https://www.facebook.com/postdaуз)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

КИТОБ ЖАВОНИНГИЗГА

# КИРОЙИ ДЎСТИНГ ШУНДАЙ БЎЛСА...

Яқинда Ички ишлар вазири маслаҳатчиси, генерал-полковник Зокиржон Алматовнинг «Унтилмас хотираларим» номли китоби нашрдан чиқди. Китобда муаллифнинг босиб ўтган ҳаёт йўли, шу жумладан, ички ишлар органлари тизимидағи узоқ йиллик самарали фаолияти мобайнида бошидан кечирган заҳмат ва қийинчиликлари, орттирган бой тажрибаси, шу билан бирга, мамлакатимиз ҳаётида рўй берган мұхим воқеалар ҳақида ҳам ҳақоний ҳикоя қилинади.

Хабарингиз бор, Зокиржон Алматов ҳамда ИИВ Жамоатчилик кенгаши раиси, Ўзбек миллий академик драма театри директори, Ўзбекистон, Қорақалпоғистон ва Тоҷикистон халқ артисти, «Эл-юрт ҳурмати» ордени соҳиби Ёдгор Саъдиевни узоқ йиллик дўстлик риштари боғлаган. Қуидида китоб муаллифининг қадрдан дўсти, халқимизнинг суюкли санъаткори билан боғлиқ хотираларидан бир шингилини эътиборингизга ҳавола этамиш.

Худойимга минг шукрлар бўлсинки, мени оқибатли дўстлардан қисмаган. Ана шундай ишончли, ўзгалар ҳожатини чиқаришга доимо тайёр, вафодор дўстларидан бири эл сўйган санъаткор, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти Ёдгор Саъдиевdir. У қадрдонларига, яқинларига жуда меҳрибон инсон. Бирор дўстининг бошига иш тушса, касал бўлиб қолса, имкони борича ёрдам беришга ҳаракат қиласди. Менга нафақат чин дўст, балки жигаримдай бўлиб қолган...

Театр, кино ва телевидениеда роллар ижро этиб, актёрлик санъатини пухта эгаллаган Ё. Саъдиев режиссёрлик соҳасида ҳам фолият кўрсатиб, театр саҳнасида «Тунги меҳмон», «Алдагани хотин яхши», «Ҳаёт – эшик ортида» каби спектаклларни саҳналаштириди. 1998 йилдан Ўзбекистон Ички ишлар вазирлиги қошидаги «Қалқон» студиясида бадиий раҳбарлик қилган вақтида ёзувчи Тоҳир Маликнинг «Шайтанат» романси асосида кўп серияли «Шайтанат» видеофильмини режиссёр сифатида суратга олди ва ўзи Асадбек ролини ижро этиб, кинода жиддий муваффақиятга эришиди. 2001 йилда «Қалқон» студиясида Ё. Саъдиев режиссёргида «Шайтанат» видеофильмининг 5 серияли иккинчи қисми суратга олиниб, маданий жамоатчилик кўригига тақдим этилди. Ёдгор Саъдиевнинг 50 йиллик самарали ижодий меҳнати муносиб тақдирланди. У 1989 йилда Республика Давлат мукофотига, 1998 йилда «Ўзбекистон халқ артисти» фахрий унвонига ва яқинда «Эл-юрт ҳурматли» орденига сазовор бўлди.

Имкони бўлганда вақт тошиб, у билан дийдорлашиб, гурунглашиб турамиз. Ёдгор Саъдиев бир куни суҳбат аноссида:

– Зокиржон ака, одамлар ҳажга бориб келяпти, умрага бориб келяпти. Биз ҳам Аллоҳнинг мусулмон бандаси сифатида ана шу фарз амални бажарсан бўлармиди, – деди.

– Ёдгор ака, ўша кунлар ҳам келади, албатта. Аллоҳ насиб этганида, биз ҳам умра, ҳаж сафарларига бориб келамиз, – дедим унга далда бериб.

Орадан ҳеч бир вақт ўтмай ана шундай вазият,



ҳам, хабар олиб келасиз. Майли, сиз айтган куннинг йўлга чиқамиз, борганим бўлсин, – деди Ёдгор Саъдиев.

Икки дўст Саудия Арабистонига йўл олдик. Биз тушган самолёт аэропортга қўнаётган пайтда, бошқа бир самолёт фазога кўтарилиди. Уни кўриб негадир юрагим бир оз безовтланди. Буни сезган Ёдгор Саъдиев ҳол-аҳвол сўради.

– Йўқ, хавотир олманг, Ёдгор ака. Ҳозир учуб кетган самолётга кўзим тушди-ю, нима учундир юрагим безовта бўлди, – дедим уни тинчлантириб.



қолаверса, зарурият пайдо бўлди. Дўстимга қўнғироқ қилиб:

– Ёдгор ака, Саудия Арабистонидаги бир шайх дўстим оғир касал бўлиб қолибди, вақт ажратা олсангиз, бориб кўриб келардик, – дедим.

– Ана шу хислатингизга қойил қоламан, Зокиржон ака. Бирор яқинингиз, дўстингиз касал бўлса, қаерда бўлмасин, бир марта бўлса

Хавотирим бежиз эмаслиги самолётдан тушиб, аэропортнинг кутиш залига келганимизда аён бўлди. Маълум бўлишича, ҳалиги шайх дўстимнинг аҳвали бир оз оғирлашиб, уни ўша самолётда Лондонга олиб кетишган эди. Шайх кетаётib, бизларни назарда тутиб, Ўзбекистондан меҳмонлар келишини айтиб, уларни кутиб олишни тайинлаган экан.

Икки қадрдан Жидда шаҳрида бир оз туриб, меҳмон бўлдик. Кейин дўстимга:

– Яқинда умрага, ҳажга қачон борамиз, деб сўрагандингиз. Шунча жойдан бу ерга келдик. Энди биройла умра амалларини бажарип кета қоламиз, – дедим.

Қаранг, Ёдгор аканинг нияти чин кўнгилдан, холис экан. Астойдил эътиқод қилган, нияти холис бўлган кишиларнинг ишини Яратганинг ўзи ўнгидан келтириб кўяди, дейишгани нақадар тўғри эканлигига ўшанда яна бир бор амин бўлгандим. Икки дўст ўша куниёқ умра амалларини бажаришга киришдик. Муқаддас Каъба атрофида айланиш ва уни тавоғ килиш чоғида минглаб одамлар орасида бизга ҳам осонгина Қора тошга пешонамизни теккаизиш насиб этди.

Ибодатларимиз чоғида Аллоҳдан биринчи галда юртимизда тинчлик, осойишишаликнинг бардавом бўлишини, давлатимиз равнақ топиб, халқимиз фаровон яшашини, ундан кейин эса оила аъзоларимиз соғ-саломат бўлиб юришларини сўрадик.

– Ана, Ёдгор ака, ўша кунги суҳбатимизда қилган ниятингизга фаришталар

рий жуда баҳаво ерда жойлашган бўлиб, тўйиб-тўйиб нафас олардик. Атрофдаги гўзал манзарапи кўриб кўзимиз қувнайди. Пастдаги сойда зилол сув шарқираб оқиб турибди. Бир сўз билан айтганда, жаннатмонанд жой. Лекин ашаддий кашандада бўлган Ёдгор ака шундай баҳаво жойда ҳам чекишина қилмасди.

– Тоза ҳавода тўйиб-тўйиб нафас олсангиз-чи, Ёдгор ака, сигаретани тутатавермасдан. Ўқангизни заҳарлаб нима қиласиз? – дедим унинг соғлигини ўйлаб.

– Организмим ўрганиб қолган. Чекмасам бошим қаттиқ оғрийди, – деди у ўзини оқламоқчи бўлиб.

– Уйқунгизда кеча тунда роса йўталиб чиқдингиз, – дедим гапимга жиндек ёлғон аралаштириб. Аслида бир-икки марта қисқа йўталиб кўйганди, холос.

– Кашандаликни бекорга қоралашмайди, ўпкага кони зарар, дейишади. Шуни чекишдан бирор фойда топдингизми?

Бу гапимдан Ёдгор ака роса хавотирга тушди. Демак, сигарета чекишдан бутунлай воз кечиш вақти етиби, деган фикр хаёлидан ўтди, шекилли:

– Бўлди, Зокиржон ака, бугундан бошлаб шу зормандани чекиши ташлайман, – деди қатъий оҳангда.

– Билмадим-ов, – дедим атайнин унинг қатъиятини кучайтириш учун. – Кашандаликнинг сигарета ташлаши вақтинча, дейишади.

– Бугун эски йилнинг охирги куни. Эртадан янги йил бошланади. Янги йилдан менинг сигарета чекканимни кўрмайсиз! – дедим Ёдгор ака тантанавор оҳангда.

Шу билан сигарета мавзуси тугади. Ҳақиқатан ҳам, дўстим сўзида турди – кашандаликдек зарарли одатини бутунлай ташлади. Балки, кейинроқ ўйлаб кўриб, менинг озгина ваҳима қилганлигимни сезгандир, балки сезмагандир. Нима бўлганда ҳам, қадрденим кони зарар бўлган одатдан қутулди. Мен эса унинг ирода кучига қойил қолдим. Ҳар доим Ёдгор Саъдиевни эслаганимда, «Киройи дўстинг шундай бўлса» дейман. Менга ҳаётда шундай самимий, садоқатли дўст ато қилганидан Аллоҳимга беадад шукроналар айтаман.

 QOROVUL QO'SHINLARIDA

## ORZULAR QANOTIDA

**IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Toshkent viloyatida joylashgan 7535-harbiy qism maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi 2-jangovar guruhi komandiri, katta leytenant Azizbek Ismoilov otasi iste'fodagi serjant Xushvaqt Karimovga havas qilib shu kasbni tanladi.**

U bundan to'rt yil muqaddam mamlakatimiz Qurolli Kuchlari Akademiyasini muvaffaqiyatli tamomlab, mazkur harbiy qismda xizmatni boshladi. Yosh ofitserga mayor Dilmurod Hasanov ustozlik qildi.

Guruh harbiy xizmatchilar qo'shinlar miqyosida o'tkaziladigan turli musobaqa va tanlovlarda ishtirok etib, yuqori natijalarga erishayotir. Jumladan, o'tgan yili guruh katta mutaxassis savyori, III darajali serjant Shaxboz Bo'riboev «Alvon beret» sohibi bo'ldi. Shuningdek, guruh katta mutaxassis, xizmat itlari bo'yicha yo'riqchi,

III darajali serjant Muxriddin Mirzaaliyev esa o'tgan yili «Yangi O'zbekiston» bog'ida o'tkazilgan «Yangi nafas» ommaviy yugurish musobaqasida 3 km. masofaga yugurish bo'yicha faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Orzular qanotida parvoz qilayotgan A. Ismoilov o'z ustida tinimsiz izlanib, sohani mukammal o'rganishga intilmoqda. Shu kunlarda u navbatdagi «Alvon beret» va «Dovyurak jangchi» intensiv sinovlariga puxta tayyorgarlik ko'ryapti.

**Mixli SAFAROV,  
o'z muxbirimiz.  
Toshkent viloyati.**


 KASB FIDOVISI

## XAVFSIZ YO'L – OSOYISHTA KUN

**Safdar Anvar Ibragimov Sa-marqand shahar Yo'l haraka-ti xavfsizligi bo'limiga xiz-matga kelganiga ham mana, 15 yil bo'libdi.**

U har kuni turfa fe'lli haydovchilar, ko'pincha qoidabuzlar bilan muloqot qilishiga to'g'ri keladi. Qanday qilib xotirjamlikni saqlash va xushmuomala bo'lishga erisha-yotgani haqidagi savolga u shunday javob berdi:

– Har bir insonning o'zi-ga xos fe'l-atvori bor. Shu bois uning holatidan kelib chiqib muomala qilaman. Ayrimlarda xodim faqat jarimaga tortadi, degan tushuncha bor. Aslida biz jazoga tortish uchun ishlamaymiz. Asosiy maqsadimiz – yo'llarda harakat va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, haydovchilar madaniyatini oshirishdan iborat. Axir, YTH o'z-o'zidan ortayotgani yo'q. Barcha baxtsiz hodisalar yo'l harakati qoidalana-



riga qasddan amal qilmaslik tufaylidir.

Safdar Anvar Ibragimov tanlagan kasbidan hech qachon afsuslanmaydi. Xizmat paytida kimgadir yordam berolsa, o'sha kunni besamar o'tmagan hisoblaydi.

– Ko'pincha pulsiz qolgan, manzilga yetib borish imkon bo'lmayotgan fuqarolar murojaat qilishadi. Qo'limdan kelganicha ularga yordam beraman. Bir kuni xizmat vaqtimda homilador ayol yordam so'radi, u shifoxonaga vaq-

tida yetib borolmasligidan xavotirlanardi. Shu zahotiyoq xodimlarni yordamga chaqirdim, ayol patrul mashinasida o'z vaqtida tug'uruqxonaga olib borildi.

Xizmat vazifasini bajarib, uyiga qaytayotgan inspekторинг bor charchog'ini yozadigan, xush kayfiyat ulashadigan shiringina oilasi, farzandlari bor. Anvar bu baxtdan yanada baxtiyorlik hissini tuyadi.

**Zamira BOLTAYEVA,  
o'z muxbirimiz.**

## KELAJAKKA RAG'BAT



**IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonligida harbiy xizmatchilarining farzandlariga respublika olyi ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun imtiyozli tavsiyanomalar topshirildi.**

Unda Vatanimiz tinchlik-osoyishtaligi, ertangi kunimiz farovonligi uchun munosib hissa qo'shib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar hamda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan va olgan tan-jarohati natijasida nogiron bo'lib qolganlarning farzandlari va ularning oila a'zolari qatnashdi.

— Padari buzrukvorimning yurtimiz himoyasi yo'ilidagi mas'uliyatlari evaziga ana shunday tavsiyanomaga ega bo'ldim, — deydi kichik serjant Abduhamed Ollayorovning qizi Iroda Eshquvvatova.

**O'z muxbirimiz.**

BIR QO'SHIQ TARIXI



## SAMIMIYAT SINGGAN SATRLAR

**Muhabbat o'zi eski narsa, ammo u har qalbda yangilanadi, degan edi donishmandlardan biri. Shu bois sevgi-muhabbat haqidagi she'r va qo'shiqlar yillar o'tsa-da, o'z muxlislariga ma'naviy quvvat beraveradi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston chegara qo'shinlari kapitani, zaxiradagi ofitser, san'atkor Yulduz Abdullayeva ijodida bunday qo'shiqlar anchagini. O'z davrining «xit» qo'shig'i sanalgan «Men sizni azizim...»ning muxlislari bugungi kunda ham ko'plab topiladi. Nazarimda, uning ta'siri har bir odamning boshidan kechgan ham armon, ham sog'inch kabi mudroq histuyg'ularni uyg'otadi.**

Yulduz Abdullayevaning ilk ijod namunalardan biri bo'lgan bu qo'shiq aslida qanday yaralganini bilasizmi?

– O'sha kezlari Toshkent davlat konservatoriyaning talabasi edim, – deb eslaydi xonanda o'z intervyyularidan birida. – Yotoqxonada yashardim. Har bir xonada shug'ullanishimiz uchun fortepyano bo'lardi. Qo'shiq ham aslida shu yotoqxonada yaralgan.

Talaba Yulduz bo'sh vaqtleri o'zicha she'rlar mashq qilib yurardi, keyin unga kuy bastalardi. Muvaffaqiyatlari chiqqan «Men sizni azizim...» she'rini olib O'zbekiston teleradiosiga, kompozitor Doni Ilyosovga uchrashadi. Unga navo ma'qul keladi, ammo she'rni biror

ijodkorga ko'rsatib olishni maslahat beradi.

Radiokomitetenning she'riyat va nasr bo'limida ishlaydigan shoir Qadam Saidmurodov uning yozganlarini kamsitmagan holda, boshqa she'r yozib berishini aytadi va naqoratini saqlab, shu ohanga mos she'r yozib beradi. Yulduz Abdullayeva qo'shiqni tayyor qilib, O'zbekiston teleradiosi badiiy kengashiga topshiradi.

– Bilasizmi, u paytlari bir qo'shiq yaratilishi uchun juda ko'p chig'iriplardan o'tish kerak bo'lardi. Nima bo'larkin, ma'qul kelarmikan, o'tarmikan, deb rosa o'yaganman, – deydi xonanda.

Qo'shiq badiiy kengashdan muvaffaqiyatlari o'tadi. Yulduz

endi uning radioda jarang sochi-shini kutadi. «O'zbekiston» va «Mash'al» kanallarida o'z ijrosini eshitib, nihoyatda sevinib ketadi. Qo'shiqning so'zlarini sodda va dilga yaqin, ohang ham yengil va shirali bo'Igani bois qisqa fursatda ommalashib ketadi.

Tabiatan, Yulduz Abdullayeva o'zi kuylaydigan har bir yangi qo'shiqqa did va mas'uliyat bilan yondashgan. Songa emas, asosan sifatga e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham xonanda ijrosidagi qo'shiqlar umrboqiy, hali hanuz muxlislar e'tiborida, dilida, tilida. Ayni vaqtida u yana yangi taronalar ustida ishlamoqda.

**Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.**

### «MEN SIZNI, AZIZIM...»

Ko'kka boqib yulduz sanayman, Gohi kecha-kunduz sanayman. Sochlarmi ming xil tarayman, Sog'inaman, yo'llar qarayman. Sochlarmi ming xil tarayman, jonim, Sog'inaman, yo'llar qarayman.

Men sizni, men sizni, azizim, Men sizni, azizim, Sog'inaman, yo'llar qarayman.

Dilda bugun yurakda bir cho'g', Dardlarimda, tilakda bir cho'g'. Yerda, suvda, falakda bir cho'g', Mendek joni halakda bir cho'g'. Yerda, suvda, falakda bir cho'g', jonim, Mendek joni halakda bir cho'g'.

Men sizni, men sizni, azizim, Men sizni, azizim, Sog'inaman, yo'llar qarayman.

O'ylaymanu, o'ylarim yetmas, Sizsiz kecham, kunduzim o'tmas. Hayo o'rtar, so'zlarim yetmas, Xayolimdan xayoli ketmas. Hayo o'rtar, so'zlarim yetmas, jonim, Xayolimdan xayoli ketmas.

Men sizni, men sizni, azizim, Men sizni, azizim, Sog'inaman, yo'llar qarayman. Sog'inaman, yo'llar qarayman...



XALQ BISOTIDAN



## KELAJAK UCHUN HISSA

Imtihondan muvaffaqiyatlari o'tganini nishonlash uchun qahvaxonaga kirgan talaba bir o'zi o'tirishni istamay, atrofga nazar soldi va yolg'iz qariyaga ko'zi tushdi. Yigit uning yonidan joy egallab, buyurtma qila boshladi. Ovqatlanish jarayonida suhbat qizib, talaba maqtanishni boshladi. Keksalar yoshlarni tushunmasligidan yozg'irdi.

– Siz shunchaki tamoman boshqa olamda voyaga yetgansiz, deyarli ibtidoi zamonda yashagansiz, – deya ovozini balandlatdi yigit va bu bilan atrofdagilarning e'tiborini jalb qilmoqchi bo'ldi. – Mening tengdoshlarim esa televizor, reaktiv samolyotlar, kosmik sayohatlar, internet, atom energiyasi va yana ko'p narsalar bilan ulg'aydi...

U ichimlik ho'plash uchun so'zini to'xtatti. Qariya bundan foydalanimiunga shunday dedi:

– Bilasanmi, gaplaring to'g'ri, o'g'lim. Bularning bari bizda bo'Imagan, shuning uchun ham ularni yaratishga kirishganmiz va uddasidan chiqqanmiz. Endi esa o'yab ko'r, sen o'zing kelgusi avlod uchun nima qilmoqchisan, ularga nimalarni qoldirmoqchisan?

## CHINAKAM BOYLIK

Bir yigit nuql o'z hayotidan nolib, tinmay hasrat qilardi.

– Nega men shunchalik omadsizman? Hammada mashina, uy bor, menda-chi?.. Axir, men yosh va kuch-quvvatga to'la bo'lsam, nega doim omadim yurishmaydi.

Kunlardan birida uning nolalarini shu yerdan o'tib ketayotgan bir yo'lovchi eshitib qolibdi. U bir muddat qulq tutib, keyin yigitdan so'rabi:

– Agar senga o'n million taklif etsam, buning evaziga oyog'ing yoki qo'lingdan voz kecharmiding?

– Yo'q, albatta.

– Ko'zlarigandan-chi?

– Yuz million bersangiz ham, voz kechmayman, – keskin javob qilibdi yigit.

– Ana, ko'rdingmi! Hayot senga shuncha pulga ham alishmaydigan tuhfalar hadya etib qo'yibdi, sen esa omadsizlik va faqirlilikdan nolib yuribsan. Hayotdan biron narsa talab qilishdan oldin o'zingda bor boylikdan to'g'ri va unumli foydalinishni o'rgan.



Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

## SALOMATLIK SABOQLARI

# OZISH ASLIDA JUDA OSON, QACHONKI...

Ijtimoiy tarmoqlarda ozdiruvchi dorilar haqida juda ko'p reklamalar bor. Masalan, bir dorining reklamasida aytishicha, kuniga ikki marta ichilsa, bir oyda bemalol 10 kilogramdan 15 kilogramgacha ozish mumkin ekan. Agar haqiqatan ham shunday bo'lsa, semizlikdan aziyat chekayotgan insonlar nega shu dorilarni sinab ko'rishmas ekan!?



Ozdiruvchi slim choylar, qahvalar, kokteyllar, kremlar va yana bir qancha mahsulotlar ozish uchun iste'mol qilinadigan dori vositalarining aslida yog' to'qimalariga hech qanday aloqasi yo'q, qaytaga salomatlik uchun salbiy ta'sirlari bisyor. Shu bois ozish uchun eng maqbul yo'l – mutaxassis bilan maslahatlashish kerak.



## To'g'ri ovqatlanish tartibi haqidagi kerakli ma'lumotlar:

\* ertalab nonushta qilmaslik eng katta xato;

\* uyqudan turgach, 2 stakan xona haroratida bo'lgan suv ichish. Negaki, iliq suv odamning kun davomida faol bo'lishiha yordam beradi;

\* shuningdek, och qoringa suv ichish ovqat hazm qilish traktining to'g'ri ishlashini ta'minlaydi. Ichak motorikasini tartibga soladi, gastrit, ich qotishi va oshqozon-ichak trakti kabi kasalliklarning oldini oladi;

\* alohida ta'kidlash joiz, kun davomida chanqog'ingizni toza suv bilan qondirgan ma'qul. Boshqa ichimliklar, ayniqsa, tarkibida shakar bo'lgani tanani kerakli miqdordagi suyuqlik bilan ta'minlamaydi;

\* kun davomida imkon qadar, tanani va o'zingizni zo'riqtirmagan holda uchto't litr suv ichish lozim. Bu organizmda to'plangan toksinlarni tezroq chiqib ketishiga yordam beradi;

\* kuniga yarim soat ochiq havoda yayov yurish;

\* shirinliklar iste'molini nazorat qilish lozim;

\* kefir ham ortiqcha vaznga qarshi kurashishda eng foydali mahsulotlaridan hisoblanadi. Uning fermentlangan probiotiklari

ichaklar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada hazm qilish, vitamin va minerallar so'riliishi yaxshilanadi;

\* kuniga yarim soat ochiq havoda yayov yurish;

\* eng asosiysi, jismoniy faoliytkni kundalik ish tartibiga kiritish. Bu har qanday parhezning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Adolat FAYZIYEVA,  
o'z muxbirimiz.



Jazirama issiqda inson tanasi kerakli haroratni ushlab turish uchun katta kuch sarflaydi. Shu bois bosh og'rig'i, taxikardiya, chanqoq, faollikning susayishi kuzatilishi mumkin. O'z organizmingizga yordam berish uchun suv balansini me'yorashtirish, bir qator zararli mahsulotlardan voz kechish tavsiya etiladi. Misol uchun, havo harorati yuqori bo'lganda gazlangan, energetik va spirtli ichimliklar, qahva iste'mol qilish mumkin emas.

## YOZDA TAVSIYA ETILMAYDI

Tarkibida shakar miqdori ko'p bo'lgan gazli ichimliklar va qadoqlangan sharbatlar chanqoqni qondirmaydi, aksincha, uni kuchaytiradi va tanada suvsizlanish darajasini oshiradi. Shuningdek, bo'yoqlar, bir turkum kimyoviy elementlar va gaz bilan boyitilgan bunday ichimliklar nafaqat vazn ortishiga, balki organizmning moddalar almashinuvi va kislota-ishqor muvozanati buzilishiga olib keladi.

Qahva va achchiq damlangan choy diuretik ta'sirga ega bo'lib, minerallar bilan birga,

t a n a d a n suyuqlikni olib chiqib ketadi. Kofein peshob haydovchi xususiyatga ega. Ushbu ichimlik iste'molidan so'ng organizmdan suyuqlik ko'proq chiqib ketadi,

tana suvsizlanishi kuchayadi. Buning oldini olish uchun qahva ichgandan 30 daqiqadan so'ng bir stakan iliq suv ichishni odat qiling.

Issiqda spirtli ichimliklar qat'yan taqiqlangan, chunki ular yurak va qon tomirlariga, butun tanaga yukni oshiradi. Hatto eng kam miqdorda iste'mol qilingan spirtli ichimlik ham boshqa oziq-ovqat mahsulotlaridagi foydali moddalar, vitamin va minerallarning organizmga so'riliishiha to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ko'p ichadigan odamning bosh miya qobig'ida degenerativ buzilish, onkologik kasalliklar yuzaga kelishi, jigar zararlanishi, asab tizimi zo'riqishi, ruhiy holat yomonlashuvi kuzatiladi.

Bugun qo'lbola usulda tayyorlanib, ko'cha-ko'yda sotilayotgan kvas, mors, o'rik sharbati, ayron, go'ja kabi ichimliklar sanitariyagigiiena talablariga javob bermaydi. Bunday sharoitda sotilayotgan va tayyorlanish jarayoni mavhum bo'lgan sharbatlarni iste'mol qilish kishi organizmi uchun katta xavf tug'dirishi, ichburug', virusli gepatit va boshqa bir

qator kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu tufayli ularni uy sharoitida, ishonchli va foydali mahsulotlardan tayyorlab iste'mol qilish maqsadga muvofiqdir.

Aksariyat insonlar jazirama issiqda muzdekk suv ichish chanqoqni qondiradi, degan fikrda. Aslida bunday emas. Havo isib ketganda tana o'zini tabiiy ravishda sovitadi va inson ko'p terlaydi. Muzdekk suv ichganda esa organizm uni isitishga majbur bo'lib, ikki hissa ko'p energiya



sarflaydi va tana sovish o'rniga yanada qiziydi.

Mutaxassislar bunday kunda iliq yoki xona haroratida bo'lgan suyuqlik ichishni tavsiya qilishadi. Bunday ichimlik metabolizm va ichak faoliyatini yaxshilab, qondagi xolesterin miqdorini pasaytiradi, tanadan toksinlarni haydaydi, chanqoqni tez qondiradi va tanadagi termoregulyatsiyani rag'batlantiradi. Shu tariqa, organizm tezroq soviydi. Shuningdek, iliq suv tanadagi suv-tuz balansini me'yorashtiradi.

Issiq kunlarda me'yordan ortiq ovqat yeyish ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois kunda 5 mahal yengil tamaddi qilish, menyuni meva-sabzavotlar, qatiq, suyuqlik iste'moli bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, achchiq, sho'r va yog'li taomlardan voz kechish juda muhim. Chunki ular tana qizishiga va ko'p terlashga, buning natijasida esa tana suvsizlanishiga sabab bo'ladi.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

 Размышления о книге

# ИСТОРИЯ УСПЕХА ЧЕЛОВЕКА

**Книга Ника Вуйчича «Любовь без границ» – это не просто автобиография или история успеха человека, преодолевшего физические ограничения. Это вдохновляющая и глубоко трогательная история о любви, надежде и силе человеческого духа.**

**Ник Вуйчич, рожденный без рук и ног из-за редкого заболевания – тетраамелии, с детства сталкивался с трудностями, которые многим из нас даже сложно представить. Однако он сумел превратить свои ограничения в источник силы и мотивации, став всемирно известным оратором и вдохновителем.**

## ОСНОВНЫЕ ТЕМЫ КНИГИ

1. Любовь и принятие. Центральной темой книги является любовь. Ник подчеркивает важность принятия себя и других, независимо от внешних особенностей. Его история с женой Канаэ – яркий пример того, как истинная любовь преодолевает любые барьеры. В книге автор пишет о чувстве родительской любви, которое супруги впервые испытали после рождения сына – Киёси. Через два года, в 2015 году, у пары родился еще сын – Деян. Как и первый ребенок, он был абсолютно здоров. В 2017 году Ник Вуйчич стал отцом девочек-двойняшек – Оливии и Эллы.

2. Вера и духовность играют ключевую роль в жизни Вуйчича. Ник открыто делится своими убеждениями, рассказывая, как они помогли ему преодолеть самые трудные моменты в жизни. Это может послужить сильным мотиватором для тех, кто ищет опору и надежду в трудные времена.



и постоянное стремление к личностному росту и саморазвитию. Ник показывает, что настойчивость, вера в себя и позитивный настрой могут привести к невероятным достижениям.

4. Вдохновение и мотивация. Книга наполнена примерами и историями, которые вдохновляют. Ник делится своими пережи-

3. Сила человеческого духа. История Ника – это яркое свидетельство того, что человеческий дух способен преодолевать любые преграды. Его жизненный путь – не только борьба с физическими ограничениями, но

ваниями, успехами и неудачами, показывая, что каждый человек может найти свой путь к счастью и успеху, несмотря на любые трудности.

## ЛИЧНОЕ ВОСПРИЯТИЕ

Читая «Любовь без границ», невозможно оставаться равнодушным. История Ника Вуйчича заставляет задуматься о собственных проблемах и способах их преодоления. Его оптимизм, юмор и искренняя вера в лучшее – это то, что находит отклик в сердцах многих людей. Книга вдохновляет не только на личные свершения, но и на то, чтобы быть добре, внимательнее к окружающим и к самому себе.

«Любовь без границ» – книга, которая может изменить жизнь. Она учит нас смотреть на мир с открытым сердцем и позитивным настроем, принимать себя и других такими, какие мы есть, верить, что можно преодолеть любые препятствия. Это чтение, которое стоит того, чтобы его пережить, прочувствовать и взять с собой в повседневную жизнь.



## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(17-iyundan – 23-iyungacha)



**Qo‘y.** Kelayotgan hafta o‘z mavqeingizni mustahkamlab olish uchun qulay palla. Agar ish borasida qat’iyatlari bo‘lsangiz, omad sizga kulib boqadi. Bu davrda sog‘liqqa alohida e’tibor qaratishni ham unutmang. Juma kuni yangi ishlarga qo‘l urmagan ma‘qul.



**Buzoq.** Siz uchun hafta moliyaviy masalalar bilan bog‘liq uchrashuvlarga boy bo‘ladi. Hafta oxirida taqdiringizni o‘zgartirib yuboruvchi yoki ish faoliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatuvchi insonlar bilan kutilmagan tanishuv yuz berishi mumkin.



**Egizaklar.** Bu haftada faollikni oshirishga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda hamma narsa faqat sizning foydangizga xizmat qiladi. Ko‘p ishlarni yaqinlaringiz ko‘magida yaxshilab olasiz. Yakshanba qo‘srimcha ishlarni bitirib olish uchun qulay kun, bundan unumli foydalaning.



**Qisqichbaqa.** Ishda hal bo‘lmayotgan har qanday masalalar bu davrda osonlikcha o‘z yechimini topadi, shuningdek, mushkul vazifalarni tez orada yo‘lga qo‘yishga erishasiz. Hafta oxirida barcha muammolardan uzoqlashib, dam olishga e’tibor qarating.



**Arslon.** Bu hafta rasmiy ishlarni uchun juda qulay palla. Biroq o‘zingizni ko‘p urintirmang. Do‘sstar yordamingizga ehtiyoj sezishadi. Agar sabr-toqtali bo‘lib, kirishimli ekanligingizni ko‘rsata olsangiz, payshanbagaga borib sizni qiyinayotgan barcha masalalar o‘z yechimini topadi.



**Parizod.** Hafta boshida ishlarni biroz kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Har bir harakatingizni nazorat qiling. Hafta o‘rtasiда kutilmagan tuhfalar va yaxshi xabarlar olishingiz mumkin. Dam olish kunlarini shahar tashqarisida o‘tkazib, toza havoda hordiq olishni rejalashtiring.



**Tarozi.** Bu haftada ijodiy ishlarni band bo‘lasiz. Bir talay tushunmovchilik va ko‘ngil-sizliklar ortda qoladi. Haftaning birinchi yarmi ikkinchisiga qaraganda xotirjam kechadi. Dam olish kunlari yaqinglaringiz xonardonida mehmon bo‘ling.



**Chayon.** Siz uchun hafta juda omadli kechadi. Ishdagi asosiy e’tiborni xato-kamchilikka yo‘l qo‘ymaslikka qarating. Ushbu haftada moliyaviy masalalarda qiyinchilik sezmaysiz. Har tomonlama tartibli harakat muammolarning hal etilishini ta’minlaydi.



**O‘qotar.** Haftani xush kayfiyatda o‘tkazmoqchi bo‘lsangiz, ko‘proq oila davrasida bo‘ling. Muhimi, qanday kayfiyatda bo‘lishingizdan qat’i nazar og‘irroq bo‘ling. Xuddi shu narsa sizdan hafta davomida talab qilinadi.



**Tog‘ echkisi.** Kelayotgan hafta siz o‘ylagandan ham a’lo darajada kechadi va bu davrda sizdan baxtli odam bo‘lmaydi. Yangi tanishuvlar, uchrashuvlar, qiziqarli tadbirlar sizga manzur bo‘ladi. Dam olish kunlarini ijodga bag‘ishlang.



**Qovg‘a.** Kelayotgan haftada ishlaringiz kutilganidek bir maromda kechmaydi. Unutmang, ehtiyojkorlik ko‘pgina tashvishlarni chetlab o‘tishga yordam beradi. Dam olish kunlari vaqtinigiz ziq bo‘lishiga qaramay, ko‘p narsaga ulgurishingizga to‘g‘ri keladi.



**Baliq.** Haftaning ilk kunlari siz uchun biroz og‘irroq kelishi mumkin. Xavotirlanmang, hafta o‘rtalariga borib hammasi o‘z iziga tushib ketadi. Muhabbat munosabatlari aynan shu haftada ijobjiy tus oladi. Hafta oxirida moliyaviy ishlarda omadingiz chopadi.

Совет ветеранов МВД Республики Узбекистан извещает о кончине полковника в отставке **Михаила Ивановича КОЛЮШЕВА** и выражает искренние соболезнования родным и близким покойного.

# «BAHODIR YALANGTO'SH» IBTIDOSI

## O'ZBEKİSTONDA HAM TARIX JONLANTIRILMOQDA

Katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan yangi tarixiy-badiiy film «Bahodir Yalangto'sh» davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan «Tirik tarix» loyihasi doirasidagi ilk kinokartina bo'lib, Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan, Samarqand viloyati hokimligi bilan hamkorlikda «Ezgu film» studiyasi tomonidan suratga olingan. Mazkur film premyerasi 25-may kuni Samarqandda, 30-mayda esa Toshkentda bo'lib o'tdi.



### BAHODIR YALANGTO'SH ASLIDA KIM BO'LGAN?

Yalangto'shiby Bahodir 1576-yili Nurotada Olchin qabilasiga mansub Nurota hokimi oиласида tug'ilgan. Sulola ashtarkoniylar davridagi harbiy mulkdor zodagonlarning yirik vakili bo'lgan. Yalangto'shiby Bahodir 14 yoshida Buxoro xoni Abdullaxon II huzuriga kelib, uch yil maxsus harbiy maktabda harbsan'atini o'ргangan. Uning boshqaruvchilik salohiyati e'tiborga olinib, 1593-1595-yillarda Bulung'ur, Loyish va Kat-taqo'rg'onda tumanboshi lavozimiga tayinlanadi.

19 yoshi-da Imomqulxon da'vati bilan Buxoroga kelib, Bag'dodga o'qishga yuboriladi. Yalantoshby Bahodir 1611-yilda Imomqulxonni taxtga o'tqazishda faol qatnashgan. Shundan so'ng Yalangto'shiby Bahodirning mavqeyi ortgan, u Samarqandni 1626-yildan amalda mustaqil idora eta boshlagan. Unga otaliq unvoni berilgan. U hokimlik davrida obodonchilik, qurilish ishlariiga katta e'tibor bergen. Samarqandda Sherdor, Tillakori madrasasi, Maxdumi A'zam masjidi xonaqosini qurdigan. Butun dunyoga O'zbekistonning ramzi siyatida tanilgan, millionlab sayyohlarni lol qoldirayotgan Samarqandning Registon maydonini aynan Yalangto'shiby Bahodir yaxlit holga keltirgan. Yalangto'shiby

Bahodir 1656-yilda Samarqandda vafot etgan.

### FILM EPIZODLARI HAQIDA

Film senariysini Hasan Toshxo'jayev yozgan. Postanovkachi rejissyor esa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Jahongir Ahmedovdir. Bahodir Yalangto'sh obrazini tanqli aktyor, sport ustasi Habibullo Nizomov gavdalantirgan. O'zbekistonda xizmat



ko'rsatgan artistlar Matyoqub Matchonov, Boir Xolmirzayev, Behzod Muhammadkarimov, Tohir Saidov kabi mahoratli aktyorlar ijro etgan profesional roller esa tomoshabinni zeriktirib qo'ymaydi.

«Filmlarda, xususan, tarixiy filmlarda ham asosan salbiy obrazlarni ijro etganman. Chunki har qanday filmda salbiy qahramon dinamikani belgilab beradi. Shu bilan birga, salbiy obraz aktyordan alchida mas'uliyat talab qiladi.

Tomoshabinning diqqat markazida turadi. Abdurahmon devonbegi obrazi ham shular qatoriga kiradi», — deydi o'zi ijro etgan rol haqida Tohir Saidov.

Film ijodkorlari Yalangto'sh haqidagi ma'lumotlarni yetti yuzdan ziyod manbalardan o'rganib chiqishgan. Yalangto'shning ikki qizi va bir o'g'li bo'lgan. O'g'li navqiron yoshida vafot etganligi bois u haqda juda kam ma'lumot yetib kelgan. Film badiiy to'qima orqali o'g'lining vafoti haqidagi sahna bilan boyitilgan. Qizlari Yalangto'shiby Bahodirning buniyodkorlik ishlarini davom ettirgani haqida manbalarda keltirilgan.

Film voqealari rivojida Imomqulxon bilan Yalangto'shiby Bahodirning suhbatni taqdirm etiladi. Unda qahramonimiz nima uchun Mavarounnahr rivojlanishdan orqada qolayotgani, na shayboniyalar, na ashtarxoniyalar kuchaymagani, temuriylarning parchalanib ketishiga sabab bo'lgan holatlar haqida millat fidoyisi sifatida kuyunchaklik bilan so'zlaydi.

Rejissyor Jahongir Ahmedovning ta'kidlashicha, Yalangto'sh ishtiropidagi jang sahnalari ko'pligi, u gavdali bo'lishi va to'shini ochib, jang qilishi shartligi uchun mazkur rol mos tushishi nuqtai nazaridan aynan Habibulla Nizomovga topshirilgan.

### ULKAN MEHNAT MAHSULI

Film to'liq «O'zbekfilm» kinokonsernining yangilangan panoramali pavilonida suratga olingan va taqdimotgacha uch yil-u ikki oy vaqt sarflangan.

«Bahodir Yalangto'sh» tarixiy filmining jang sahnalari «Nomad Stan's» xalqaro kaskadyorlar jamoasi ishtiropida suratga olindi. «Nomad Stan's» jamoasi xalqaro kaskadyorlar akademiyasi mukofoti «Taurus» (kaskadyorlar Oskari) ga sazovor bo'lgan. Jamoa ko'plab Gollivud filmlarida jang sahnalarini qo'yishda ishlagan bo'lib, ularning so'ngisi rejissyor va prodyuser Ridli Skottning «Napoleon» tarixiy filmi hisoblanadi.

Joriy yilning 6-iyunidan e'tiboridan, «Bahodir Yalangto'sh» filmi yurtimiz kinoteatrlarida namoyish etilm-oqda. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi mazkur tarixiy-badiiy filmning xalqaro kinofestivallardagi ishtiropini ta'minlash maqsadida xorijiy (ingliz, rus, turk) tillarga dublyaj qilish va subtitrlashtirish bo'yicha dublyaj studiyalari o'rtaida tanlov ham e'lon qildi. Bu esa filmni dunyo miqyosida ommalashtirish uchun qo'yilgan o'ziga xos katta qadamdir.

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.

Gazetamizning navbatdagi soni 21-iyun juma kuni chiqadi.

MUASSIS:

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rindbosarları –  
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –  
Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV

Navbatchi –  
kapitan  
Mixli SAFAROV  
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –  
Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

### TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)

E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodı 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>st</sup> street.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olangan.

Buyurtma №2037.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50347 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**  
100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.